

Hazrati Muhammad (s.a.v.) hadislar

Lev Tolstoy

Daho Adibning Iymonli Iqrori

Lev Tolstoyning O'zbek kitobxonlariga tanitishga ehtiyoj yo'q. «Bo'yi baravar kitob yozgan» (Abdulla Qahhor) ulug' adib o'zidan keyingi davrda yashagan barcha adiblarga o'z ta'sirini o'tkazgani ilmda tan olingan hodisa. G'afur G'ulom uning «Pervaya kniga»sidan ruscha ilk saboqni olgan bo'lsa, Abdulla Qahhor Tolstoyning ijodini o'ziga mahorat maktabi deb bilgan edi. Darvoqe, «Mahorat maktabi» nomi bilan e'lon qilingan yostiqday kitobda eng ko'p tilga olingan rus adiblaridan biri ham Lev Tolstoy edi. Buyuk adibning hayotlik chog'idayoq uning asarlari o'zbek kitobxonlariga «Turkiston viloyatining gazetisi» orqali yetib kelgan, ayrim asarlari o'zbek kitobxonlarida hurmat uyg'otib ulgurgan bo'lsa, ayrim o'zbek ziyolilari «buyuk sinod»ning «zulmga qarshi bormaslik» g'oyalariga keskin qarshi chiqib, Siz mustamlakachilikni himoya qilyapsiz, deya raddiya bildirishgacha borib yetganlari bugungi o'quvchilarga kunday ravshan. Yana shunisi ham ma'lumki, Tolstoy haqida yo'qsillar dohiysi besh maqola yozgan va u maqolalar sho'ro kunlarida Qur'onday o'qitilgani bilan ulug' adib ijodining hamma qirralarini ham aks ettirib bera olmagan edi.

Lev Tolstoyning «Bolalik. O'smirlik. Yoshlik» hasbi holi XX asr o'quvchilariga adabiy saboq bo'lgan, uning «Kavkaz asiri» hikoyasi go'dakligimizdanoq bizning badiiy ijodga bo'lgan munosabatimizni «shakllantirishga xizmat qildirgan» asarlardan edi. Tolstoy talqinida urush va tinchlik (shu nomli epopeya), baxt va baxtsizlik («Anna Karenina»), tug'ilish va o'lim («Tirilish») kabi ziddiyatlarni insoniyat idroki ayniyat kabi qabul qilishda Tolstoydan ko'mak o'tinganlarini ham zarracha unutmaymiz. Ayniqsa, ijodi tiniqqan, hayotining so'nggi davrida yaratilgan «Sergey ota», «Hoji Murod» kabi dohiyona asarlari buyuk adibni tirik «sinod» (payg'ambar) darajasiga ko'targani, uning o'limi oldidan minglab, o'n minglab tolstoychilar o'z yurtlarini tashlab chiqib ketib, «tirik payg'ambarning ilohiyotga qovushishi» (I.Bunin, «Tolstoyning qutilishi»)ni kuzatish ilinjida bo'lganlarini butun jahon ommaviy axboroti imkon darajasida yoritib turgan edi. O'zi bir paytlar «Sevastopol hikoyalari»da isyon ko'targan kavkazlilarni qirganini buyuk bir iftixor bilan yozgan bo'lsa, «Hoji Murod» qissasida chor mustamlakachiligi zulmi uchun o'zini ozmi-ko'pmi aybdorday bilib, chorizmga qarshi chiqish har bir erkparvar mazlumning niyati ekanini oshkor yozgani uni daho adib sifatida haqiqatga tik qaray oladigan mard inson ekanini ham anglatgandi. Ustoz Ozod Sharafiddinov «Iqronoma»day murakkab va sirli bir asarni tarjima qilib, nashrga berarkan, uning: «Men urushda odam o'ldirganman, o'ldirmoq niyatida duelga chaqirganman, tasarrufimdagi mujiklarni kartaga boy berganman, ularning mehnati evaziga yashaganman, ularni qatl etganman. Yolg'onchilik, o'g'irlik, har xil rangdagi zinokorlik, ichkilikbozlik, zo'ravonlik, qotillik... Men qilmagan jinoyat qolgan emas...» kabi iqrorini keltirib, «har qanday inson ham, birinchi navbatda, banda ekanini va banda sifatida adashish huquqiga ega ekanini unutib qo'yamiz. Tolstoy ulug' edi, lekin u ayni chog'da inson ham edi va ayni shu jihati bilan u boshqa insonlarga yaqin turadi» deb yozganida Tolstoyday murakkab adibning

dunyoqarashiga doir ayrim sezimlarni anglatgan edi. Lev Tolstoyning ulug'ligi ham uning o'sha «banda»ligida, Haq oldida insoniy o'jizligiyu dohiyona tafakkur bilan mukarram iymonni saqlaganida edi. Uning dil iqroriga quloq tuting: «Qayerdagi hayot bo'lsa, o'sha joyda insoniyat paydo bo'lgandan beri unga yashash imkonini beradigan iymon bor. Va iymonning asosiy belgilari hamma joyda va hamisha bir xil. Har qanday iymon kimga bo'lmasin va qanday bo'lmasin javob bergan bo'lsa, iymonning har qanday javobi insonning cheklangan hayotiga cheklanmagan narsaning ma'nosini baxsh etadi va bu ma'noni azob-uqubatlar, muhtojliklar, o'lim mahv etolmaydi. Binobarin, faqat iymondagina hayotning ma'nosini va yashash imkonini topish mumkin. Shunda angladimki, so'zning eng muhim ma'nosida olib qarasak, iymon «ko'z ilg'amas buyumlarni» va hokazolarni fosh qilishgina emas, karomatgina emas (bu iymonning sifatlaridan birining tasviri, xolos), insonning Xudoga munosabatigina emas (Xudo orqali iymonni belgilash kerak emas, avval iymonni belgilab olib, so'ngra Xudoni belgilash lozim), ko'pincha, iymonni mana bunday tushun deb odamga aytilgan gaplarga qo'shilishgina emas, balki iymon inson hayotining ma'nosini bilishdir va shu bilimi vajhidan inson o'z-o'zini mahv etmaydi, balki yashaydi. Iymon hayotning qudratidir. Inson yashar ekan, u biror narsaga ishonadi, iymon keltiradi. Agar u «nima uchundir yashamoq kerak» deb biron narsaga ishonmasa, iymon keltirmasa, unda u yashamas edi. Agar u cheklangan narsani ko'rmasa va uning xayoliy bir narsa ekanini anglamasa, u ana shu cheklangan narsaga ishonardi; agar u cheklangan narsaning xayoliy ekanini anglasa, unda u cheksiz narsaga ishonmog'i kerak. Iymonsiz yashab bo'lmaydi».

Bu so'zlar din shaklidan qat'iy nazar har bir insofli banda iymon sari yuksalgandagina hayotning ham, o'limning ham ma'nisini topishga muhaqqaq bo'lajagini eslatuvchi bir dalolatnomadir. Shunday ekan, Tolstoyday abadiyat sari intilib «Xudo izlagan» adibni dahriy qilib ko'rsatishga uringan davrlarni bot-bot eslab turamiz. Ularni eslash barobarida daho san'atkor ruhiyatida kechgan ruhoniyyat tuyg'ularni ilg'ashga harakat qilamiz. Garchi u o'z qahramoni kabi P'er Bezuxov bo'lib masonlikdan ko'mak o'tinganda ham, Platon Karatayev bo'lib, o'z iymonini urush changalidan salomat olib chiqishga uringanda ham, Vronskiyday kibor knyaz quchog'idan qochib o'zini o'limga tutgan Anna Karenina qalbida yashaganida ham mukarram iymonning tarafida bo'ldi. «Qotillik har qanday dinning birlamchi asoslariga zid bo'lgan yovuzlikdir» degan xulosaga keldi. Hayotning qudratini va o'lim saodatini «iymon izlagan» va bu hayotda unga erishgan kishilardagina ko'rdi. Bu yo'lda o'zining abadiy savoli «Hayot nima? Uning mohiyati nimada?» ekanini izlab topmoqchi bo'ldi. Buning uchun birgina pravoslav cherkovining qoidalari doirasida qolib ketmadi. Eng qadimgi dinlar – hind vedalari, konfutsiylilik, buddizmdan tortib eng zamonaviy diniy qarashlargacha o'rganib chiqdi: «men kitoblardan buddizmni ham, islomni ham o'rgandim, hammadan ko'ra ko'proq ham kitoblardan, ham atrofimni qurshab olgan odamlarning hayotidan xristianlikni o'rgandim». Dastlab iymonining negizi deb nasroniylilikni bildi, o'zini doimo pravoslav tarafdori deb bildi. «Biroq bir joyga kelib hayot masalalari ko'ndalang bo'ldi, ularni hal qilmoq kerak edi. Cherkov bu masalalarni men yukinadigan iymon asoslariga zid tarzda hal qila boshladi». Sulaymon payg'ambardan tortib Shopengauergacha diniy ta'limotlarning mohiyatini anglamoqchi bo'ldi, hatto o'zi tan olib aytganiday, ularni o'zaro solishtirmoqqa ham jazm qildi. Nasroniylidagi ayrim

masalalar unga o'ta chalkash va tushunarsiz bo'lib ko'rindi: «Ota, O'g'il va Muqaddas Ruhga sig'inaylik» degan iborani tushirib qoldirardim, negaki ularni tushuna olmas edim». Shunga qaramay, mukammal bir din izlash harakatida bo'ldi: «Xo'sh, men yana nimani izlayapman? – deb sado beradi dilimdagi ovoz. – Mana u. Usiz yashab bo'lmaydi. Xudoni tanimoq va yashamoq - aynan bir narsa. Xudo hayotdir» degan xulosada to'xtadi. «Yasha, Xudoni izlab top, shunda hayoting Xudosiz bo'lmaydi». «Shunda dilimdagi va atrofimdagi narsalarning hammasi har qachongidan kuchliroq nurlanib ketdi va bu nur meni ortiq tark etmadi».

Lev Tolstoy birmuncha tabiiy ikkilanishlardan so'ng bunday nurli hayotga qadam qo'yganida 50 yoshlar bo'sag'asida edi. Bundan keyin yana 30 yillardan mo'lroq umr kechirdi. Nihoyat, 80 yoshlar atrofida qariyb bir necha o'n yillardan beri tortinib kelayotgan ishga qo'l urdi. So'nggi din deb tan olingan Islom va payg'ambari oxirzamon Muhammad (s.a.v.) hayotini o'rganish bilan cheklanmay Abdulloh Suhravardiyning Hindistonda nashr etilgan «Hazrati Muhammadning hadislar» risolasidagi hikmatlardan bir kitobcha tartib qilib, «Posrednik» nashriyotida chop (1909) qildirdi. Majmuaga kirgan va o'ta nozik ruhoniylar did bilan saylangan ushbu hadislarini o'qiganda, ulug' Tolstoy e'tiqodining naqadar teranligi, diniy bag'rikenglik tushunchasi mana shunday ulug' adiblarga tegishli ekaniga ishonish mumkin bo'ladi. Chunki 1879-1882 yillarda yaratilgan va sho'ro vaqtida uzoq payt xalqdan yashirilgan «Iqronoma» bilan bu to'plamga jamlangan hadislar o'rtasida mantiqiy bir izchillik sezila boshladi. Lev Tolstoyning islomga bo'lgan samimiy hurmati tabiiy edi, biroq buni jahon afkor ommasiga shunday yetkazib bo'lmas ham edi. Ayni shu yili kavkazlik ziyoli oila Ibrohim og'a Vekilov va uning zavjasi Yelena Yefimovnadon maktub kelib, ora yo'lda ikkilangan farzandlarining iymon-e'tiqodini islomga yo'naltirish maqsadida Tolstoydan maslahat so'raganlari bo'ldi. Tolstoyning javob xatidagi «Musulmonlikning nasroniylardan ustunligiga va, ayniqsa, farzandlaringiz xizmat qilmoqchi bo'lgan g'oyaning oliyanobligiga butun qalbm bilan qo'shilaman. Xristian ideali va ta'limotini har narsadan baland tutgan bir inson uchun buni aytish g'oyat g'alati bo'lsa-da, aytishim kerakki, musulmonlik o'ziga xos tashqi ko'rinish jihatidan ham cherkov xristianligidan qiyos qilib bo'lmas darajada ustun ekanligi menda hech bir shubha uyg'otmaydi. Agar bir kishiga cherkov xristianligi yoxud Islom diniga kirish borasida tanlash ixtiyori berilsa, o'ylaymanki, har bir aqlli odam murakkab va tushunarsiz ilohiyotdan, uch sifatli Ollohdan, gunohdan chiqarish marosimiyu boshqa diniy udumlardan, Isoning onasiga yolvorishidan, «Muqaddas shaxslar» va ularning rasmlari oldidagi son-sanoqsiz ibodatlardan ko'ra yagona Ollohni va Uning payg'ambarlarini; Islom dinini, albatta, ustun ko'radi. Boshqacha bo'lish ham mumkin emas» kabi fikrlar tasodifiy aytilgan yoki bir mushtipar onaga bildirilgan hamdardlik oqibati emas, balki yillar, o'n yillar davomida o'ylangan, izlangan va nihoyat umrning poyonida bir yo'nalishga kirgan e'tiqodning samarasi ekanini anglash mumkin.

Yo'q, biz ulug' rus adibi Lev Tolstoyning Islom bilan bog'lamoqchi emasmiz. Zero, Tolstoyning islomiy ta'limi tugal emasligi «Izrecheniya Magameta ne voshedshiye v Koran» («Hazrati Muhammadning Qur'onga kirmagan hadislar») sarlavhasidanoq ma'lum. Biroq umrining oxirida Allohga bo'lgan e'tiqodini turli ishoralar bilan izhor qilgan buyuk nemis shoiri Gyote kabi Islomga bo'lgan samimiy hurmatini e'tirof

etmoqchimiz, xolos. Ayni mana shu ehtirom dohiyona tafakkur bilan mukarram bir iymon-e'tiqod natijasi ekanini kitobda ketma-ket keltirilayotgan manbalar tasdiqlab turibdi.

To'g'ri, Tolstoyning «Iqrornoma»sini o'z davrida, hatto undan 50 yil keyin ham «bevaqt alahsirash» deb baholaganlar bo'lgan, bu asarni ta'qib qilib, ulug' adib asarlari kulliyotiga qo'shmay kelgan davrlar ham bo'lgan. Biroq «Iqrornoma» yaratilganidan qariyb 110 yil keyin (1991 yil) Lev Tolstoy to'la asarlari jildlaridan o'rin olgan ekan, ehtimol, Tolstoy asarlarining keyingi nashrlaridan ham iymonli maslahatgo'y adibning Vekilovlar oilasiga yozgan xati va uning saylamasidagi «Hazrati Muhammadning hadislar» o'rin olsa ajab emas.

Hamidulla Boltaboyev, professor

Musulmonlarning «Ollohdan boshqa iloh yo'qdir,

Muhammad Uning payg'ambaridir» degan hikmatida

hech qanday muammo va sir yo'q.

Lev Nikolayevich Tolstoy

Tolstoyning E'tiqodi

Dunyoga mashhur rus yozuvchisi Lev Tolstoyning «Hazrati Muhammad» risolasi bir necha muhim ahamiyatga ega. Avvalo, bu asar nasroniylar ko'p yashaydigan Rusiyada yozilib, 1909 yilda nashr etilgan. Bu risolani hayotlik chog'idayoq juda katta shuhrat qozongan jahonning ulug' yozuvchilaridan biri, rus adibi Lev Nikolayevich Tolstoy nashrga tayyorlagan. Katta mol-mulk egasi bo'lgan Lev Tolstoy dinni chuqur tahlil qilishi, bu xususta teran mulohaza yuritishi bilan ko'pchilik e'tiborini tortdi. Boshqalardan farqli o'laroq, u dinga shovinistlaracha yondashmadi. Din mohiyatini tushunishga intilishi, haqiqatga sadoqati va mol-dunyoga unchalik e'tibor bermasligi tufayli u diniy haqiqatlarni anglashga yaqinlashdi.

Lev Tolstoy Hazrati Muhammadga (s.a.v.) hurmati va Islom diniga nisbatan hayrati natijasida tasnif etgan bu asari bilan yuksak madaniyatli va diniy ma'lumotlarga ega bugungi o'quvchilarni hayratlantirmaydi, deb o'ylaymiz. Lev Tolstoy bu kitobchani boshqa asarlari bilan birga (1909), rus o'quvchilarini Hazrati Muhammad (s.a.v.)ning hadislar bilan tanishtirish maqsadida tasnif etgan. Ishonch bilan ayta olamizki, ushbu kitobcha ko'plab kitobxonlarning diniy tushuncha va tarbiyasiga ta'sir qilgan. Chunki Hazrati Muhammad (s.a.v.)ning shaxsiyati, ul zotning ilohiy qudratga asoslangan fikrlari, shuningdek, Rusiyada e'tiborli dindorlardan biri sanalgan Tolstoyning tavsiya-taqdimi mazkur kitobchani ta'sirini oshirgan.

Sobiq sho'rolar davrida L. N. Tolstoyning asarlari qayta-qayta chop etilgan bo'lsa-da, u zot tasnif etgan ushbu risola biror marta ham nashr etilmagan. Chunki sho'rolar hukmronligining dastlabki yillaridanoq kishilar majburan dahriy ettirila boshlangan. Buni istamagan kishilar 1938 yilda «qatag'on qurbonlari»ga aylangan. Shunday bir paytda Lev

Tolstoyning din to'g'risidagi mulohazalariga istisno sifatida qaralmasligi tabiiy. O'sha davrdagi vaziyat to'g'risida tasavvur hosil qilish uchun bir voqeani misol sifatida keltirishimiz mumkin.

1978 yili (mazkur kitobcha nashr qilinganidan 70 yil keyin) Ozarboyjon jumhuriyatining nufuzli jurnallaridan biri «Ozarboyjon»da bu risolaning «Kirish» qismi va unga ilova tarzida turk generalining turmush o'rtog'i - Ye. Vekilovning Lev Tolstoyga yozgan maktubi ozarboyjonchaga o'girilib, chop etilishi mo'ljallandi. Ammo Bakudagi senzura tashkiloti bunga ruxsat bermadi. Sababi esa Tolstoy kabi bir ulug' rus yozuvchisining Islom dini va Hazrati Muhammad (s.a.v.) haqida ijobiy fikrlar aytgani edi. Bosh muharrir mazkur kitobchaning «Kirish» qismi va Ye. Vekilovning maktubini chop etish maqsadida jurnalning ushbu soni nashrini uzoq vaqt kechiktirdi va ruxsat olish uchun Moskvaga murojaat qildi. U yerdan «Ha, nashr etish mumkin» degan javob kelgach, risola va maktublar o'quvchilarga yetkazildi. Shunday qilib, ushbu kitobdagi maktublar 1978 yilda ilk bor Ozarboyjon matbuotida ozar va rus tillarida e'lon qilindi.

Tolstoy tasnif etgan risola va maktublar ancha shov-shuv bo'ldi. Lekin Tolstoy kabi dohiy bir qalamkash, Islomga buyuk rag'bat va hurmati bor shaxs, asariga nom tanlashda jiddiy xatolikka yo'l qo'ygan. Bizningcha, Islom dini Rus imperiyasi zamonida ochiq-oshkor ta'qiqlanmagan bo'lsa-da, u Rusiyada o'rganilishi mumkin bo'lmagan bir din edi. Balki shu boisdan bo'lsa kerak, Tolstoy ham risolasiga nom tanlashda yanglishgan.

70 yil hukm surgan Sovetlar Ittifoqi parchalanganidan keyin diniy qadriyatlarga qaytadan ahamiyat berilishi tufayli Lev Tolstoyning risolasi 1990 yilda o'z tili – rus tilida nashr etildi. Afsuski, Tolstoyning xatosini risolaning Ozarboyjondagi ushbu nashriga muharrirlik qilgan noshir Gayibov ham takrorladi. Biz esa bu kitobni tarjima qilar ekanmiz, nomlanishdagi yanglishishni islomiy atamashunoslikni asos qilib olgan holda, texnik xato deya qabul qilib, uni tuzatishga majbur bo'ldik. Tolstoy nashr etgan vaqtda risolaning nomi «Hazrati Muhammadning Qur'onga kirmagan hadislar» edi. Bu nomlanish xatodir. Chunki «Qur'on» Olloh kalomidir. Hadislar esa Hazrati Muhammadning (s.a.v.) so'zlaridir. Shuning uchun Tolstoyning mazkur risolasini «Hazrati Muhammad» deya nomlashni to'g'ri deya bildik.

Diqqatingizni yana bir narsaga qaratmoqchimiz. Rusiyada rus millatiga mansub, islomni qabul qilgan Valeriya Poroxova degan ayol bor. Bu ayol arab yigitiga turmushga chiqib, eri bilan 11 yil Saudiya Arabistonida yashagan. Bu rus ayoli islom dinini chuqur o'rgangan va musulmon bo'lgan edi. V. Poroxova «Qur'oni karim»ni ruschaga tarjima qildi va bu tarjima ilohiyotchi (islomshunos)lar tomonidan ma'qul ko'rildi. Poroxova xonim katta jasorat bilan «Tolstoy va Islom» mavzusini ommaviy axborot vositalariga olib chiqdi va keng yoritdi.

Poroxova xonim L. N. Tolstoy umrining oxirgi damlarida Islom diniga hurmat bilan qaraganini ommaviy axborot vositalarida ma'lum qildi. Sovet hukumati esa uzoq yillar bu haqiqatni yashirishga urindi. Poroxova xonim katta jasorat ko'rsatib, bu muhim hujjatni nashr ettirdi.

Rus xalqi, xususan, rus ziyolilari va olimlari L. N. Tolstoyning donishmand inson sifatida sevishardi. Ulug' adibning Islomga bo'lgan hurmati rus jamoatchiligi ichida Islomga qarshi kayfiyat uyg'otishi mumkin edi. Rusiya davlati Tolstoy kabi bir dohiyning Islomga hurmat-ehtiromi jamoatchilikka ma'lum qilinishiga ruxsat berolmas edi. Shu boisdan Tolstoy tomonidan tasnif qilingan «Hazrati Muhammad (s.a.v.) hadislar» risolasi uzoq vaqt yashirin tutildi.

Bu kitobchadan joy olgan hadislar va boshqa islomiy mavzularni diqqat bilan tadqiq qilib, turkchaga o'girib, uning Turkiyada chop etilishiga yordam bergan doktor Orif Arslonga tashakkur bildiramiz.

Doktor, professor Telman Xurshid o'g'li Aliyev,

Voqif Tehmez o'g'li Xalilov.

Boku, Ozarboyjon. 2005 yil aprel'

Taqdim

Lev Tolstoy Hazrati Muhammad (S.A.V.)ga Maftun Yozuvchi

Ulug' rus yozuvchisi Lev Nikolayevich Tolstoyning islom diniga ehtirom ko'rsatganini bilishning o'ziyoq bir muhammadiy sifatida bizni quvontirdi. Shu boisdan ham bunday jahonga mashhur zotning Hazrati Muhammad bilan bog'liq risolasini turkchaga tarjima qilib, o'quvchilarga yetkazishga hissa qo'shishdan faxrlanaman.

Kapitan Kusto (Cousteau) musulmonlikni qabul qilganini Fransiyaning «Match» jurnalida bergan interv'yusini o'qib bunga ishona olmagan edim. 1983 yilning may oyida aynan shu jurnalda Clement Toret haqida ham shu mavzudagi maqolani o'qidim. Toret Fransiya Kommunistik partiyasi rahbari edi. U: «Insoniyat endi kommunizmga emas, haqiqiy qiblasini bo'lmish Ka'baga qaytajak, kommunizm tugadi...» der va falastinlik turmush o'rtog'i bilan birga gazeta va jurnallarga bu haqda juda ko'p interv'yular berishardi.

G'arbda juda mashhur bo'lib, keyinchalik islom dinini qabul qilganlar faqatgina shu kishilargina emas, albatta. Yana ortga nazar tashlasak, Frans Bismark, Gyote, hatto, rus shoiri Aleksandr Pushkin va boshqalar ham islom diniga ehtirom bilan qaraganini ko'ramiz. Bunday shaxslardan yana birini yozuvchi Alev Alatlidan boshqa deyarli hech kim bilmagan, 2001 yil boshida musulmon bo'lgan Rusiyaning Din Ishlari raisi V. Polosindir.

E'tiborlisi shundaki, V. Polosin butun Rusiya ommaviy axborot vakillari huzurida musulmon bo'lganini bayon etarkan, jumladan bunday dedi: «Butun jamoatchilik oldida guvohlik beramanki, men ortadoks cherkovining popi ham, mudiri ham emasman. Men endi musulmonman... Yana guvohlik beramanki, men kitobi bo'lgan barcha dinlarning, Hazrati Ibrohimdan boshlab barcha payg'ambarlarning ulug' odati bo'lmish haqiqiy iymonning tolibi sifatida yagona to'g'ri dinga iqror bo'ldim. Ijtimoiy hayotimni ham e'tiqodimga muvofiq shakllantirishga qaror qildim. Va musulmon bo'ldim». Ortodokslikning qal'asi - qo'shnimiz Rusiyada V. Polosinning musulmon bo'lishi qanday aks-sado berishini o'ylab ko'ring. Ammo u 1999 yilda Rusiya ortodoks patriarxalligining

uyushmasi va diniy jamoalari aloqalari qoʻmitasi raisi va Oliy Sovet Vijdon erkinligi qoʻmitasi boshligʻi va Rusiya Federatsiyasi vakillari majlisi - «Duma»da deputat boʻlgan. Bosh pop Vyacheslav Polosinning (Turkiyada Diyonat ishlari boshqoni maqomiga toʻgʻri keladi) musulmon boʻlganini nimagadir Turkiyada toki Alev Alatli maʼlum qilmaganiga qadar hech kim bilmadi.

V. Polosin ayni paytda Moskva Davlat universiteti falsafa fakul'teti, Zagors Diniy maktabi va Rusiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vazirligi Diplomatik akademiyasi bitiruvchisi ham edi. Men bu maʼlumotni Alev Alatlining «Gogolning izini topmoqchi emasmiz» kitobida oʻqigach, avvaliga ishonmadim. Bunday voqea shov-shuv boʻlmasdan qolishi mumkin emasligi haqida oʻyladim.

V. Polosin musulmon boʻlganini aytgach, uning boshiga tushishi mumkin boʻlgan xavf-xatarlar haqida nimalar oʻylashini soʻrashganida: «Hammamiz foniymiz, oxir-oqibat bu dunyodan ketamiz. Inson bolasining tahdid vahimalariga itoat etmoqdan koʻra Haqiqatga taslim boʻlgan holda dunyodan ketish yaxshiroqdir!» deb javob bergan.

Turmush oʻrtogʻi ham musulmon boʻlganini, oʻzi Ali ismini olganini aytgan V. Polosin, rus mamlakatida nasroniylikdan musulmonlikka oʻtgan eng soʻnggi mashhur kishidir. 1978 yilda Moris Bacaill va R. Graudy lar musulmon boʻlishganda ham shunday quvongan edik. Bu shaxslar oʻtmishda kommunistlarning yetakchi gʻoyaviy arboblari edilar. Yana kimlardir qayerdadir yashirin yoki oshkora Islomga kirib, musulmon boʻlganidan biz bexabar qolgandirmiz.

L. Tolstoy musulmonlikni sotsializm toʻgʻrisidagi gʻoyalar eng avj olgan va ular koʻpchilikni oʻz taʼsiriga tortgan bir zamonda tilga oldi. U paytda bunday bir ishga kirishish oʻzini iskanjaga solish va oʻlimni boʻyniga olish bilan barobar edi. L. Tolstoy shu ishni qildi. U ijodda yuksak choʻqqiga koʻtarilgan va moddiy jihatdan hech narsaga muhtoj boʻlmagan bir paytda bu ishga qoʻl urdi. Bu vaqt hech kim «u zaif edi, yordamga muhtoj edi...» deyoymasdi.

L. Tolstoy bularning hammasini tushungan, bilgan holda, Hazrati Muhammad (s.a.v.) hadislarini toʻplab, rus xalqiga taqdim etdi. Chunki poydevori zaif ekanligi aniq boʻlgan sotsializm uni oʻz taʼsiriga ololmagan edi. Bu ulugʻ yozuvchi imkoni boʻla turib, oʻzi yashayotgan jamiyat neʼmatlaridan bahramand boʻlish oʻrniga musulmon kabi yashamoqlikni afzal koʻrdi...

Ulugʻ yozuvchining Yelena Vekilovaga yozgan maktubi L. Tolstoyning musulmonlikka va islom diniga muhabbatini ochiq-oshkor ifoda etgan edi. Yana ushbu xatda yozuvchi islom dinining boshqa dinlar tushgan holatga tushmaganligini, Hazrat Muhammad tadbqiq etgan din eng soʻnggi va eng mukammal din ekanligini taʼkidlaydi va boshqa dinlardagi botil jihatlar va xurofotlarga diqqatni jalb etadi.

Hadislardan tanlanganlari ham goʻyo rus xalqiga va ularni aldaganlarga bir dars-ibrat beradigan mazmunga ega. L. Tolstoy tanlab olgan bu hadislar orqali asl adolat va tenglik, haqiqiy qardoshlik va fidoyilik, hatto insonga hurmat va muhabbat ham islomda mavjudligini taʼkidlamoqchi boʻldi...

L. Tolstoy tasnif etgan hadislardan aksariyatining manbasini aniqladik. Aniqlay olmaganlarimiz balki «Kutubi sitta»dan boshqa hadis kitoblardan olingan bo'lishi mumkin...

Ushbu risoladagi hadislar dastlab arabchadan ruschaga o'girilgan. Keyin eski (klassik) ruschadan zamonaviy rus tiliga, so'ng ozarboyjonchaga, nihoyat, ozarboyjon tilidan turkchaga o'tganligini e'tiborga olmoq lozim. Chunonchi, maktublar hamda hadislardagi til xususiyatlarini alohida o'rganish lozim.

Bu kitobchani va maktublarni ozarboyjonchaga tarjima qilib, bizga yetkazgan hurmatli professor Telman Aliyev va Voqif Xalilov janoblariga, ushbu asarni tezroq turk o'quvchilariga yetkazish hayajoni ila kutgan «Karakutu» nashriyoti bosh muharriri Rosih Yilmazga tashakkur aytaman.

Orif Arslon.

2005 yil, may.

1-Bo'lim

Hazrati Muhammad

Lev Nikolayevich Tolstoy 1908 yilda Abdulloh al-Suhravardiyning Hindistonda nashr etilgan «Hazrati Muhammadning hadislar» kitobini o'qidi. O'qigan hadislaridan bir kitobcha tasnif qildi va uni Rusiyadagi «Posrednik» nashriyotida nashr qildirdi. Kitob 1908 yilning oktabr oyida «Muhammadning Qur'onga kirmagan hadislar» nomi bilan o'quvchilarga taqdim qilindi.

Mazkur birinchi bo'lim Tolstoy tayyorlagan Hadis kitobchasidan iborat. Kitobchaning nomi noto'g'ri bo'lgani uchun u keyinroq «Hazrati Muhammad hadislar» deb o'zgartirildi.

«Qalbimizda Ollohning nuri bor.

Uning nomi esa vijdondir!»

Lev Tolstoy

Olamshumul Tavsiya

Lev Tolstoyning islom payg'ambari Hazrati Muhammad (a.s.)ga oshkor hurmati haqida avvalgi bo'limlarda to'xtalgan edik. Bu hurmat ulug' yozuvchida Hazrat Muhammadning hadislarini o'qiganidan so'ng paydo bo'lgan. Yozuvchi hindistonlik islom mutafakkiri Suhravardiy tayyorlagan hadis kitobini sinchiklab mutolaa qilib, undan iqtibos va ko'chirmalar olar ekan, Hazrati Muhammad (s.a.v.) hadislaridan mahrum bo'lgan rus xalqiga va o'ziga, do'st va o'rtoqlariga Hazrati Muhammadni tanitmoqchi bo'lgan. Muhammad Payg'ambar(s.a.v.)ning xushmuomalalik, axloq, adolat, to'g'rilik kabi ko'plab

insoniy qadriyatlar to'g'risidagi so'zlari Tolstoy singari «aqli komil» bir insonning diqqatini jalb qilmasligi mumkin emas edi, vijdonli insonlardan biri sifatida ularni boshqa kishilar bilan birga baham ko'rishni ham umid qilgan.

Daho yozuvchining bu istagi bugun qo'lingizda. U tanlagan hadislar guldastasi ushbu kitobcha orqali ro'yobga chiqdi.

«Oллоhim, Senga Bo'lgan Muhabbatimni Menga Bag'ishla»

Xurmo daraxti ostida uxlab qolgan Hazrati Muhammad (s.a.v.) uyg'onsalar, qo'lida bir qilich bilan uning ustida dushmani Du'suur turibdi. U so'radi: «Ey Muhammad, seni endi o'limdan kim qutqaradi?». Hazrati Muhammad javob berdilar: «Oллоh!»

Du'suurning qilichi yerga tushdi. Uni qo'lga olgan Rasululloh, o'z navbatida so'radilar: «Ey Du'suur, endi seni o'limdan kim qutqaradi?» Du'suur «Hech kim!» deb javob berdi. Rasululloh uni ozod qilib: «Bil, seni ham o'limdan mening Oллоhim qutqardi», dedilar va uning qo'lga qilichini qaytarib berdilar. Du'suur ketayotib: «Sen mendan xayrliroqsan», dedi. Rasuli akram: «Men bunga sendan ko'ra haqliroqman», deb javob qaytardilar.

Du'suur: «Men Oллоhdan boshqa iloh yo'qligiga va sen uning rasuli ekaningga ishonдим», deya shahodat keltirdi va musulmon bo'ldi. Va Du'suur Payg'ambarning sodiq do'stlaridan biri bo'ldi.

* * *

«Oллоhim! Senga bo'lgan muhabbatimni menga bag'ishla. Sen kimni sevsang, menga ularni suyuqli qil. Shunday qilginki, men Sening muhabbatingga sazovor bo'ladigan ishlarni qilay. Senga bo'lgan muhabbatimni o'zimga, oilamga va boyliklarimga bo'lgan sevgidan ustun qil.

Oллоhim! Sendan sevgini va Seni sevganlarning sevgisini va Sening sevgingga meni yetkazadigan amallarni so'rayman. Oллоhim! Sening sevgingni nafsimdan, oilamdan, molimdan va zilol suvdan-da suyuqli qil!»

* * *

«Haqiqat insonlar uchun naqadar achchiq bo'lsa-da, haqiqatni so'ylagin!»

* * *

«Birodaring zolim va mazlum bo'lsa-da, unga yordam ber!» Bir odam: «Yo Rasululloh! Birodarim mazlum bo'lsa, unga yordam berayin. Ammo zolimga qanday yordam beraman, so'ylang?» - dedi. Rasuli akram buyurdilar: «Uni zulmdan qaytar. Shubhasiz, mana shu unga yordaming bo'ladi» .

* * *

(Alloh taolo aytadi:) «Kim bir savob ish qilsa, unga uning o'n barobaricha (ajrimi) bordir va undan ham orttiraman. Kim bir yovuz ish qilsa, uning ham misli bordir. Yoki uni butunlay afv etaman. Kim bir qarich yaqinlashsa, men unga bir arshin yaqinlashaman; kim menga bir arshin yaqinlashsa, men unga bir quloq yaqinlashaman. Kim (mening oldimga)

yugurib kelsa, men uni quchib kutib olaman. Kim (mening oldimga) hech narsani sherik qilmay (shirk keltirmay) dunyo to'la gunoh bilan kelsa, men uni shu qadar mag'firat bilan qarshilayman» .

* * *

«Ollohim, meni miskin (faqir) qilib yashat, miskin holda jonimni ol. Qiyomat kuni miskinlar qatorida hashr et!»

Hazrati Oysha so'radilar: «Nechun, (bunday duo qilmoqdasiz?) ey Ollohning rasuli?» «Chunki ular jannatga boylardan qirq yil avvalroq kirajaklar. Ey Oysha, faqirlarni sev va ularni (rivoyat majlisiga) yaqinlashtir, toki Qiyomat kuni Olloh ham senga yaqinlashsin».

«Ollohim! Meni faqirlarcha yashat, faqirlar bilan o'ldir va faqirlar qatorida hashr et!»

* * *

«Olloh taologa eng maqbul bo'lgan narsa insonning o'z mehnati bilan topgan daromadidan kuchsizlarga bergan yordamidir» .

* * *

«Jahlini yutishlik eng yaxshi ichimlik ichishdan yaxshiroqdir» .

* * *

«Sizlardan biringiz, o'ziga ravo ko'rgan narsasini dindosh birodari uchun ham ravo ko'rmaguncha haqiqiy iymon keltirganlardan bo'lmaydi» .

* * *

«Jahannam nafsga xush kelgan narsalar bilan, jannat esa nafs istamagan narsalar bilan o'ralgandir» .

* * *

Olloh taolo buyuradiki : «Ey, inson! Faqat mening qonunlarimga amal qilsang, menga ergashasan... Deysanki: «Bu shunday edi va shunday bo'lajak!»

Ya'ni, inson hayot va tabiat qonunlariga muvofiq harakat qilsa, Ollohning irodasiga ham muvofiq harakat etgan bo'ladi va xohlagan narsasini qo'lga kiritadi (Abdulloh Suhravardiy izohi).

* * *

«Ortiqcha yeyish va ichish bilan qalbingizga ortiqcha yuk yuklamang» .

* * *

Farishtalar so'radilar: «Yo Rabbim! Sen yaratgan yaralmishlar ichida tog'dan mustahkamroq narsa bormi?» Olloh: «Temirni yaratdimki, u tog'dan qattiq, toshni maydalaydi», dedi. Farishtalar so'radilar: «Temirdan ham qattiqroq narsa yaratdingmi?»

Javob bo'ldi: «Olovni yaratdim, u temirni eritadi». So'radilar: «Sen yaratgan narsalar ichida olovdan kuchliroq nima bor?» Javob bo'ldi: «Suv borki, u olovning yo'lini to'sadi va o'chiradi». Farishtalar qayta so'radilarki: «Yaralmishlar ichida suvdan kuchliroq nima bor?» Olloh buyurdi: «Suvdan kuchli shamol bor, u tebratadi va suvni haydaydi». Farishtalar so'radilar: «Yo Rabbim! Sen yaratganlar ichida shamoldan kuchliroq narsa bormi?» Olloh buyurdi: «Odam (a.s.) bolalari borki, men o'ng qo'li bilan bergan ehsonlarini chap qo'lga ma'lum qilmaydigan saxovatpeshalarni kuchli qilib yaratdim» .

* * *

Olloh aytadi: «Men hech kim bilmagan dafina edim: bilinmak istadim va insonni yaratdim» .

.

* * *

«Hech kimni xafa qilma. Agar birov seni xafa qilsa va sening illatlaringni oshkor etsa, sen uning illatlarini yuziga solma» .

* * *

«Olloh taolo ba'zi narsalarni farz qildiki , unga beparvo bo'lma. Ba'zi gunohlarga yaqinlashmaslik uchun to'siqlar qo'ydi, ulardan oshmagin. Ba'zi narsalarni harom qildiki, u haromlarga yaqin yurmagil. Ba'zi narsalarni unutgani uchun emas, senga bo'lgan marhamatidan tilga olmadiki, u (shubhali) narsalarni bajarishdan-da, qoch!»

* * *

«Kim Ollohning yaratgan narsalariga marhamatli bo'lsa, Olloh ham unga marhamatli bo'ladi. Yaxshilik qilgan va qila olmagan insonlarga ham baravar muruvvatli bo'l. Yovuzlikka qarshi marhamatli bo'lish uni yovuzlikdan qaytarish demak» .

* * *

Hazrati Muhammaddan so'radilarki : «Dinning asosi nimaga qurilgandir?» Javob berdilar: «O'zi uchun istagan narsalarni boshqalarga ham istash, o'ziga ravo ko'rmagan narsalarni boshqalarga ravo ko'rmaslik» .

* * *

«Bir musulmon samimiyatining o'lchovi uning kuchi yetmagan narsalarda chorasiz qolishidir» .

* * *

«Olloh taolo har ikki tarafiga devorlar qo'yilgan yo'llar yaratdi. Ochiq eshiklar qurdi va ularning ustiga pardalar yopdi. «Bu yo'lning boshida turgan yo'l ko'rsatuvchi eshiklarga tomon ketayotganlarga shunday deydi: «To'g'ri yuring va hech bir tomonga qayrilmang». So'ngra yuqorida turgan yo'l ko'rsatuvchi aytdi: «Bu eshikdan ichkariga kirmang, yo'qsa, chuqurga tushasiz». Bu yo'l hayot yo'lidir. Ochiq eshiklar Olloh taolo tomonidan tahlikali ko'rilgan amallardir. Eshik ustidagi pardalar Olloh tomonidan qo'yilgan to'siqdir. Birinchi

yoʻl koʻrsatuvchi Olohning kalomidir, ikkinchisi esa har bir insonning qalbidan oʻrin olgan Olohdan qoʻrquv hissidir».

Tolstoy keltirgan bu hadis notoʻgʻri tarjima qilingan va uning talqinida ham xato ilovalar bor. Hadisning asl manbasidan qilingan tarjima shundaydir:

Bir odam «Sirotu-l-mustaqim (toʻgʻri yoʻl) nimadir?» deb soʻradi. Hazrati Paygʻambar unga shu javobni berdilar: «Oloh bizni toʻgʻri yoʻlning boshiga qoʻydi. Buning oxiri esa jannatga erishmoqdir. Bu asosiy yoʻlning oʻngi va soʻlida boshqa yoʻlaklar ham bor. Bulardan har birining boshida bir guruh kishilar turadi va u yerdan oʻtganlarni yonlariga chaqiradilar. Kim toʻgʻri yoʻldan boshqasini tanlasa, bu yoʻl uni olov (doʻzax)ga eltadi. Kimki sirotu-l-mustaqim (toʻgʻri yoʻl)ga kirsas, u jannatga boradi». Ibni Masʻud bu talqinni aytgandan soʻng ushbu oyatni oʻqidi: «Bu Mening sirotu-l-mustaqimimdir, bunga yuring. Boshqa yoʻllarga burilmang, u yoʻllar sizni Olohning yoʻlidan adashtiradi» (Anʻom surasi, 152-oyat. Alouddin Mansur tarjimasi).

* * *

«Har bir musulmon sadaqa bermogʻi lozim» deb buyurdilar . U zot(s.a.v.)dan «Imkoni boʻlmasa-chi?» deb soʻradi bir sahoba. «Mehnat qilib, oʻz harajatini topsin va sadaqa bersin» javobini berdilar. «Ishlashga kuchi yetmasa-chi?» deb soʻradi. «Bu xususda bir ehtiyojmandga yordam berar» dedilar. «Bunga ham qurbi yetmasa-chi?» deyildi. «Yaxshilikka yoki savob ishga buyursin» dedilar. «Buni ham qilolmasa-chi?» degan takror savoliga «Birovlarga hech qanday zarar keltirmasin, zero, bu ham bir sadaqadir» deya marhamat qildilar .

* * *

«Shahvat bilan qarash zinodir. Erkak boʻlgan majlisda bir xotinning oʻzini koʻrsatish uchun oʻziga oro berib borishi va ehtiros bilan qarashi ham zinodir» .

* * *

Vobisa ibn Maʼbad aytadiki, Rasuli akramning huzuriga borgandim. Menga: «Yaxshilikning nima ekanligini soʻragani keldingmi?» dedilar. «Ha», dedim. Shunday deb aytdilar: «Qalbingdan soʻra». «Yaxshilik qalbga maʼqul boʻlgan va bajarilganida osoyishtalik keltirgan narsadir. Gunoh esa ichni timdalagan va boshqalar senga «Bu ishni qil» deya bir necha fatvolar bersa ham, sening ichingda shubha va taraddud (ikkilanish) uygʻotgan narsadir» .

* * *

«Siz oʻz diningizga sohib chiqmaguncha Olohning saltanatiga voris boʻlolmaysiz va biringizga muhabbat qoʻymaguncha istaganingizga erisha olmaysiz» .

* * *

«Muloyimlik va itoat iymonning alomatlari; qoʻpollik va baqiroq ovozlar ikkiyuzlamachilikning alomatidir» .

* * *

«Zolimlar bilan birga bo‘lishdan ko‘ra, o‘z holicha yolg‘iz qolmoq yaxshiroqdir. O‘z-o‘zi bilan birga bo‘lishdan ko‘ra, yaxshi kishilar bilan birga bo‘lish yanada yaxshidir. Ilm o‘rganishni istaganga ilm o‘rgatmoq jim turmoqdan yaxshidir. Befoyda so‘zlagandan ko‘ra jim turmoq yaxshidir» .

* * *

«Jahlini oshkora qilishdan tiyilib, uni jilovlaganlarni Olloh doimo mukofotlaydi» .

* * *

«Har kishining amali uning xatti-harakatlaridagi niyatiga ko‘ra baholanadi» («Amallar niyatlarga ko‘radir») .

* * *

«Olloh taolo o‘z mehnati bilan kun ko‘rganlarni O‘ziga do‘st tutar» .

* * *

«Haq yo‘lidagi kimsa shunday kimsaki, u yomonlikka sabrlidir va g‘am-anduhni unutupchidir» .

* * *

«Haqiqiy kamtarlik barcha yaxshiliklarning boshidir» .

* * *

«Tavoze’ va farosat bo‘lmasa, iymon bo‘lmas» .

* * *

«Yaxshilik ulashishda g‘ayratli bo‘ling» .

* * *

«Men Nurga intildim va yorug‘likda yashamoqdaman» .

* * *

«Eng xayrli kishi udirki, yaxshilik ko‘rganida Ollohga shukr qiladi. Kimki baxtsizlikka duch kelsa, sabr qiladi va Olloh tomonidan mukofotlantiriladi» .

* * *

«Hidoyat yo‘lini topganlar noo‘rin munozaraga kirishmasalar edi bu yo‘ldan adashmas edilar» .

* * *

«Mo‘‘min bo‘lganlari holda, nohaq zulm qilib va odamlarni o‘ldiradiganlar Ollohning eng buyuk dushmanlaridir» .

* * *

«Qabr oxirat manzillarining birinchi pog‘onasidir» .

* * *

«Eng muqaddas ish (urush) insonning o‘z nafsiga urush qilib, g‘olib kelishidir» .

* * *

«Bir soat mehnat qilmoq bir yil maishat qilmoqdan yaxshidir» .

* * *

«Ibodot – duo qilgan mo‘‘minning ruhi yuksalib, uning Ollohga qovushishidir» .

* * *

«O‘lim bu do‘stni do‘stga bog‘laydigan ko‘prikdir» .

* * *

«Faqirlik faxrimdir» .

* * *

«Mo‘‘min Ollohga sodiq holda uning hukmiga va rahmatiga rozi bo‘lib, umid bilan yashaydi» .

* * *

«Ko‘zlarning zinosi boqmoqdir, tilning zinosi so‘zlamodir. Nafs istaydi va lazzat tuyadi, a‘zolar buni to‘g‘ri yoki yolg‘onga chiqaradi» .

* * *

«Olloh taologa eng xush kelmagan narsa erkak yoki xotinlarning ibodatlaridagi xo‘jako‘rsinlikdir» .

* * *

«Olloh taolo tilanib yashaganlarni emas, o‘z mehnati bilan kun kechirganlarni marhamat qiladi» .

* * *

«Kim qancha katta zahmat ichida bo‘lsa, mukofoti ham shuncha kattadir. Kim ko‘p balolarga duchor bo‘lgan bo‘lsa, uning mukofoti ham yanada ko‘pdir. Olloh suygan bandasiga ko‘p dard (balo) yuboradi» .

* * *

Hazrati Muhammad namozini ado qilgach, shunday duo qilardi: «Ollohim! Senga boʻlgan iymonimni mustahkam qil. Hidoyat yoʻldan adashtirma. Sening marhamatingdan umidvor va inoyatingga muhtoj boʻlib, sajda qilaman. Senga iltijo qilamanki, meni xatolarimdan xalos et, toza bir qalb, haqni soʻzlaguvchi bir til ber. Senga duo qilamanki, gunoh qilishdan va xato yoʻldan Oʻzing saqla. Pinhon va maʼlum gunohlarimni magʻfirat qilgin» .

* * *

Bilasizmi, dinimizning aslini buzib uni (obroʻyini) tushirgan nimadir? «Tafsirchi va tahlilchilarning yanglishishlari, riyokor naqlchilarning yolgʻon mubohasalari va yoʻldan ozgan hukmdorlarning hukmlaridir» .

* * *

«Xotin erkakning ikkinchi yarמידir» .

* * *

«Agar ilm unutilsa unga ziyon yetadi; layoqatsizning qoʻlida yoʻq boʻlur. Haqiqiy olim udirki, bilganini hayotga tatbiq etar» .

* * *

«Olloh taolo ilmni kishilarning xotiralaridan chiqarib, unuttirmoq surati bilan emas, balki olimlarni oʻldirib oradan koʻtarar. Natijada oʻrtada hech bir olim qolmas. Kishilar bir guruh johillarni oʻzlariga yetakchi sanarlar. Ulardan bir talay masalalarni soʻrarlar, ular-da bilmaganlari holda fatvo berarlar. Natijada, oʻzlari ham adashadilar, insonlarni ham adashtiradilar» .

* * *

«Shunday bir zamon keladiki, oʻz dinigizning ismidan boshqa bir narsa qolmayajak. Islomdan ism, Qurʼondan rasmdan oʻzga narsa qolmaydi. U zamon masjidlarda ortiq ilm va din oʻrgatilmay, Ollohga qullik qilmayajaklar. Din odamlari, ilm odamlari kishilarning eng tubaniga aylanishar, bahs va munozaralar ulardan chiqajak va kishilar dindan ortga qaytadilar» .

* * *

«Ilm oʻrganmoq har bir musulmonga farzdir. Ilmni noahilga oʻrgatmak, toʻngʻizlarning boʻyinlariga gavhar, inju va oltin taqishga oʻxshaydi» .

* * *

«Ilm uch shaklda boʻlur: Bulardan biri, shubhasiz, haqiqatdirki, uning ortidan yur. Boshqasi yoʻldan chiqarur, undan saqlan. Uchinchisi esa kishilar bilmaydigan mavzulardadirki, buning yechimini Ollohning nazdida qidir» .

* * *

«Moʻʼminlar oʻlmaslar. Faqat ular foniy dunyodan boqiy dunyoga koʻcharlar» .

* * *

«Haqiqiy mo‘‘min yaxshi kunlarda Ollohga shukr qiladi, boshiga balo kelsa, Ollohga yukinadi» .

* * *

«Ollohga tavakkul qil, lekin tuyani mustahkam qoziqqa bog‘lashni unutma» .

* * *

«Dunyo bir matodir, uning eng yaxshi matosi soliha ayoldir» .

* * *

«Bilamanki, Ollohdan boshqa har narsa foniidir» so‘zini Labiddan boshqa hech bir shoir to‘g‘riroq so‘zlamagan .

* * *

«To‘g‘rilikka yukining, yolg‘ondan qoching» .

* * *

«Haqiqiy mo‘‘minga birovni sharmanda qilish, yaramas ishlar qilish va foydasiz so‘zlarni so‘zlash yarashmaydi» .

* * *

«Kishilarning qusurlarini, agar u qusurlar ularning o‘zlarida bo‘lsa ham yuziga solmoqdan saqlan» .

* * *

«Ko‘proq jim bo‘lib, ruhni xayrli ishlarga yo‘naltir, bundan-da go‘zalroq ish yo‘qdir» .

* * *

«Gapirsangiz, to‘g‘ri so‘zlang, va‘da berdingizmi – bajaring, qarzlaringizni to‘lang, fikr va ishlaringizda qing‘irlik qilmang, qo‘llaringizni isrofdan va gunohli ishlardan saqlang» .

* * *

«Olloh taolo bizni halim (yumshoq so‘zli), salim (sog‘lom), hurmatli va mutavoze bo‘lishga buyuradiki, hech kim boshqalarga zulm qilmasin» .

* * *

«Kimki bizni zulm qilishga chaqirsa, u bizdan emas. O‘z xalqini jaholatda va yolg‘on ichida saqlaganlar ham bizdan emas. O‘z xalqini zulm va mushkulda qoldirsa, u ham bizdan emas» .

* * *

«Muhabbat insonni sevgilisi qarshisida ko‘r va kar qiladi» .

* * *

«O‘zi uchun istagan narsani mo‘‘min birodari uchun ham istamagan haqiqiy mo‘‘min emasdir» .

* * *

«Musulmon boshqa musulmonlar qo‘lidan va tilidan zarar ko‘rmaydigan kishidir. Mo‘‘min esa odamlar jon va mollarini unga ishongan kimsadir» .

* * *

«Tilning ziyonini ibodatlar ham qoplay olmaydi» .

* * *

«Namoz o‘qib, ro‘za tutmakdan va yaxshilik qilishdan ham yaxshiroq narsa nima ekanligini bilasizmi? Bu bir-biri bilan xafalashgan kimsalarni yarashtirishdir. Chunki bir-biriga adovat, nafrat va dushmanlik insonni unga Olloh berajak mukofotdan mahrum etadi» .

* * *

«Olloh taolo aql va zakodan xayrli, go‘zalroq narsa yaratmagan. Insonlarga bergan boylikni ham ularning aqli uchun berur. Ollohn angamlamak ham zakodandir» .

* * *

«Olloh taoloning o‘zi halim (muloyim) va halim muomalalidir. U muloyim bandalariga bergan narsasini qo‘pol kimsalarga bermaydi» .

* * *

«Kuchli va quvvatli kishi shundaydirki, u boshqalarga zulm qilmas va o‘z g‘azabini ushlab tura olur» .

* * *

«Haqiqiy boylik mol ko‘pligi emas, ko‘ngil to‘qligidadir» .

* * *

Abdulloh ibn Mas‘ud shunday dedi: «Rasululloh bir bo‘yra ustida yotib uyquga ketdilar. Uyqudan tursalar, yonboshlarida botgan iz qolgan ekan. Biz dedik: «Yo Xudoning rasuli, istasangiz edi, ostingizga bir to‘shak solgan bo‘lardik». Rasuli akram javob berdilar: «Mening dunyo bilan aloqam, bir daraxt soyasida salqinlanib, so‘ng u yerdan turib ketgan bir otliq kabidir» .

* * *

«O‘zingizdan ko‘ra boy va go‘zal insonlarga qaraganda o‘zingizdan quyiroq bo‘lganlarni ham unutmang»

* * *

«Sizdan mol-davlat va husnda ustun bo'lgan odamni ko'rganda quyiroqqa ham qarang. Bu Ollohning ne'matini kam deb bilishlikdan saqlaydi» .

* * *

Bir odam Hazrati Muhammadning oldiga kelib: «Ey Ollohning rasuli, men sizni yaxshi ko'raman» dedi. Rasululloh unga javoban: «Nima deganingni o'ylab ko'r!» (deb aytdilar). Boyagi odam: «Vallohki (qasam ichib aytamanki), sizni yaxshi ko'raman» degan so'zni uch karra takrorladi. Rasululloh (s.a.v.) u odamga bunday dedilar: «Agar meni yaxshi ko'rsang, faqirlikka hozirlan. Chunki meni sevganga faqirlik manziliga tomon oqayotgan seldan ham tezroq yetib keladi» .

* * *

«Inson har bir a'zosi uchun Ollohning har bir kunida sadaqa bermog'i kerakdir. Ikki kishining orasida bo'lib haqlarini adolat bilan hukm etmak ham bir sadaqadir. Bir kishiga ulovga minishda yordam ko'rsatish yoki yukni yuklashda yordam berishi ham sadaqadir. Go'zal bir so'z so'zlamak ham sadaqadir. Namozga ketayotib, tashlagan har bir qadaming uchun sadaqa savobi bordir. Odamlarga aziyat yetkazadigan bir narsani yo'ldan olib qo'ymoq ham sadaqadir» .

* * *

Olloh taolo shunday buyuradi: «Har kim ixlos bilan qulluq qiladigan bir do'stinga dushmanlik qilsa, men unga qarshi urush e'lon qilaman. Qulimni menga eng yaqin qildirgan narsa mening farzlarim (ni bajarish)dir.

Qulim menga farzlarga qo'shimcha nafl ibodatlar bilan to'xtovsiz yaqinlashadi, nihoyat men uni sevaman. Qulimni sevgach esa, (xuddi) men uning eshitadigan qulog'i, ko'radigan ko'zi, tutadigan qo'li va yuradigan oyog'i bo'laman. Mendan har na istasa, uni albatta beraman, menga yukinsa, uni saqlayman»

* * *

«Yerning ichki quvvati bilan temir tozalangani kabi Olloh taologa bilib iymon keltirmak bilan insonning qalbi tozalanadi» .

* * *

«Har bir yaxshilik sadaqadir». Boshqa bir rivoyatda: «Birodarini ochiq yuz bilan qarshilamoq, o'z idishidan birodariga suv bermak ham yaxshilikdir» shaklidadir .

* * *

Rasulullohning yonlariga bolasidan ajralgan va sog'inchdan uchragan har bolani quchoqlab, ko'ksiga bosib emizgan bir ayolni asirlar ichidan keltirdilar. Rasuli akram (u xotinga ishorat bilan) atrofdagilardan: «Bu xotin bolasini olovga tashlashiga ishonasizmi?» deb so'radilar. «Aslo tashlamas!» dedik. Bunga javoban hazrati payg'ambar: «Olloh taolo o'z qullariga bu ayolga bergan shafqatidan ko'ra marhamatlidir», dedilar .

* * *

«Hamma kishilar uchun yaratilgan narsalardan faqat o‘zi uchun foydalangan kimsa, aybdor va qonun oldida javobgardir» .

* * *

«Ishchining haqqini peshonasidagi teri qurimasidan (charchog‘i chiqmasidan burun) beringiz» .

* * *

«Insonlarga xushmuomala bo‘l, qo‘pollik qilma, ular bilan murosada bo‘l, ulardan nafratlanma. Sendan yahudiylar va nasroniylar kelib, jannatning kalitini so‘rasalar ularga: Jannatning kaliti «Ollohning borligiga va birligiga shahodat etmakdir» deb aytgin .

* * *

«Birodarini ko‘rgan insonning tabassumi bir sadaqadir. Yaxshilikni amr etib, yomonlikdan saqlash ham sadaqadir. Yo‘lini yo‘qotgan kimsaga yo‘l ko‘rsatmak-da sadaqadir; ko‘zi ko‘r kimsani yo‘lga solmak ham sadaqadir; yo‘l ustidagi tosh, tikan va suyak kabilarni olib tashlamak ham sadaqadir; o‘z idishingdan birodarining ko‘zasiga suv bermak ham sadaqadir» .

* * *

«Insonlarga marhamat qilingki, Olloh ham sizga marhamat qilsin» .

* * *

«Bir kishiga bir shirin so‘z bilan tasalli bermoq, boshqasiga haq va adolatni sevdirmoq, istar-istamas yozma buyruqlarga rioya qilishdan yaxshidir» .

* * *

«Hukmida bo‘lgan tahqirlovchi kishi (aybdor)ni afv etuvchi kishi Olloh qarshisida qadrlidir» .

2-Bo‘lim

Maktublar

Hazrati Muhammadning tavsiyalari

Rus yozuvchisi Lev Nikolayevich Tolstoy 1908 yilda Abdulloh Suhravardiyning Hindistonda nashr etilgan «Hazrat Muhammadning hadislari» kitobini o‘qidi. Lev Tolstoy o‘qigan hadislaridan bir kitobcha tuzdi va uni Rossiyaning «Posrednik» nashriyotida (1908, oktabr) «Muhammadning Qur’onga kirmagan hadislari» nomi bilan nashr qildirdi. Tolstoy dindor inson sifatida turli diniy mavzularni yaxshi bilardi. U islom diniga ham nihoyatda ehtirom bilan munosabatda bo‘lgan. Ulug‘ yozuvchining bu munosabati, ayniqsa, uning asli ozarboyjonlik general Ibrohim og‘a bilan turmush qurgan rus ayoli Yelena Vekilovaga 1909 yil 15 martda yozgan xatidan ayon.

O'sha davrda Rossiyada, bolalar o'z xalqining (ozar, turk xalqi) xotirjamligi uchun islomni qabul qilmoqchi bo'lishsa, ularning ota va onalari boshqa-boshqa dinga mansub bo'lsalar ham, bolalarning diniy e'tiqodini o'zgartirishlariga tazyiq ko'rsatilmagan. Yelena Vekilova shu boisdan uning fikr-tushunchalarini qadrlaydigan zamondoshi Tolstoyga vaziyatni tushuntirib, farzandlari guvohnomasiga qaysi dinni yozdirishi yaxshi bo'lishini maslahat so'rab, ulug' adibga «bu borada nimani tavsiya qilasiz, men qanday yo'l tutsam ekan?» deya maktub yozgan edi. Lev Tolstoy ham bu xatga ko'p vaqt o'tkazmay javob yo'lladi.

Tolstoyning Javob Xati

«Muhammadiylikka Provaslav (Rossiyada nasroniylikning bir tarmog'i)dan ko'ra ko'proq ahamiyat berishlariga kelsak, men butun qalbim bilan bunga qo'shilaman. Bu gapni aytish juda g'alati bo'lsa-da, men uchun muhammadiylik, ya'ni islom dini xochga topinmoqdan (nasroniylikdan) qiyoslab bo'lmas darajada yuksakdir. Agar inson tanlash haqqiga ega bo'lsa edi, oqil har bir pravoslav (nasroniy) va har bir kishi hech shubhasiz, ikkilanmasdan muhammadiylikni; yagona Ollohni va Uning payg'ambarlarini qabul qilgan bo'lar edi. Nega? Chunki mavhum va tushunarsiz din hisoblangan Troitsa (Ota, Iso va Muqaddas Ruh) Maryam ona, muqaddas ruh kabilar bilan bog'liq turli sirli, mubham rasm-rusumlarga to'ladir... Ya'ni, asl aqidalar o'rnini egallagan bir necha botil kishilarning cherkov inonchidan balandda turmasligi tayindir. Shunga e'tibor berishimiz kerakki, muhammadiylik nasroniylikdan 600 yil keyin maydonga chiqdi. Dunyodagi barcha narsa rivojlanmoqda, mukammallashmoqda. Har bir inson taraqqiy topgani kabi insoniyat ham rivojlanib, mukammallashmoqda. Inson hayotining ma'nosi, asosi uning diniy e'tiqodidir. Dinning mukammallashishi esa uni tushunishni osonlashtirish va turli tarzda yashirin qolgan tushunchalarni oydinlashtirishdan iboratdir.

Eng qadim davrlardan insoniyatning buyuk mutafakkirlari diniy qadriyatlar va haqiqatlarning parda ortidagi qorong'u joylarining yoritilishiga intilib kelishgan va uni hayotga tatbiq qilishgan. Ular dunyodagi barcha katta dinlarning asosini o'rganishgan, o'zaro muqoyasa qilishgan. Ayonki, bizga ma'lum dinlarning asosiy g'oyalari, qadriyatlari «Veda»ning (Hinduizm) kitoblarida, keyinchalik Hazrati Musoning, Buddaning, Lao-Ijzining, Hazrati Isoning va Hazrati Muhammad (s.a.v.) ning ta'limotlarida o'z ifodasini topgan edi... Dinlarni tushunishni yanada teranlashtirgan, yanada oson va aqlga mos holga keltirganlar ham odamlar edilar. Biroq baribir ular ham oddiy bir inson bo'lishi boisidan dinning asl haqiqatini, uning butun mazmun-mohiyatini azaliy sof holida ifoda eta olmadilar.

Bu kishilar yanglishmagan bo'lishsa-da, lekin bularning talablari bilan haqiqatni bezab, dinni hammaga «tushunarli», «ma'qul» holga keltirish maqsadida, unga bir qator keraksiz, va eng achinarlisi, teskari narsalarni qo'shib tarjima qilishgan. Natijada esa kishilarning haqiqatni bilishi yana qiyinlashgan. Dinlar o'rganilsa, ular bir necha ilohiyotchilarning «sa'y-harakati» bilan o'z mazmun-mohiyati, asliyatidan uzoqlashtirilib o'zgartirilganligi, haqiqat yuziga parda tortilganligi ayon bo'ladi.

...Bu holat eski din hisoblangan Buddizm, Braxmanizm, Konfutsizm dinlarida, Taoizm kabi bashariy dinlarda ham, shuningdek, nasroniylik va musaviylikda ham, juda oz bo'lsada, eng oxirgi va buyuk din Islomda ham ko'rinadi...»

Lev Tolstoyga Maktub

Oradan olti oy o'tdi. Biroq na ota Ibrohim Og'a xotirjam bo'ldi, na Yelena Vekilovaning mushfiq qalbidagi bezovtalik barham topdi. Ularni o'ylantirayotgan muammo-o'g'illarining qaysi dinga e'tiqod qilishi edi. Alloh ularga uchinchi farzandni ham bergan edi. Qizlari Rayhona ham o'n uch yoshga kirgan. Ota-ona «Qayerga borib, kimdan aqlli bir maslahat olsak ekan?» deya o'ylashmoqda. Rasmiy davlat idoralari va dindorlar bunday vaziyatdagi oilaga yordam bermaydi.

General Ibrohim Og'aning Peterburg Texnologiya institutida tahsil ko'rayotgan katta o'g'li Boris (Foris) va Moskvadagi Alekseev Harbiy maktabida ofitser bo'lgan ukasi Gleb (G'olib)ni ham bir savol jiddiy o'ylantirmoqda:

«Biz kimmiz? Qaysi millatga mansubmiz?»

Bu haqda aka-uka tez-tez ota-onalariga murojaat qilib, muammolariga chora axtarishmoqda. Farzandlaridan Foris (Boris) vaziyatni quyidagicha bayon qiladi: «Men 19 yoshda edim. Dars mashg'ulotlari chog'ida Muhammadning diniga o'tish fikri meni hech tark qilmasdi. 1904-1905 yillardagi sharoit bu niyatimning amalga oshishiga yordam berishi kerak edi. Ammo fojialarga to'la Rossiya-Yaponiya urushi, xalqning ruhiy holati chor hukumatini ba'zi liberal qarorlar qabul qilishga majbur qilgandi.

1904 yilda «Din erkinligi to'g'risida manifest» e'lon qilindi. Unda biror bir sabab bilan ota-onasi dinidan qaytganlarga yana o'sha dinga qaytishga ruxsat berilgan edi. Ma'qul bir ariza yozilsa, bas, bu masala hal bo'lardi-qolardi. Tajribali kishilar bo'lmish ota-onam Peterburgga kelganimning ilk yilida pravoslav (nasroniy) dini himoyachilarining yaqinligida bu masalani hal etishga ruxsat bermadilar, nahotki shunday holat yuzaga kelishidan andisha qilib, men niyatimni amalga oshirishni bir oz kechiktirdim. Otam Ibrohim Og'a Vekilov va Onam Yelena Vekilova esa bu jiddiy oilaviy muammoga mutafakkir yozuvchi Lev Tolstoydan boshqa hech kim oqilona javob berolmaydi, degan qarorga keldilar.

1909 yil 2 mart kuni Yelena Vekilova Tiflis (Tbilisi)dan Tolstoyga bir xat yozadi va unda oila a'zolarining e'tiqod borasidagi «izlanish»larini bayon qiladi.

«Bizning benihoya sevimli ustozimiz Lev Nikolayevich!

Maktubim bilan bezovta qilganim uchun Sizdan uzr so'rashga so'z topolmayapman. Bilaman, menga o'xshash sizdan maslahat olmoqchi bo'lganlar ko'p. Shunga qaramay, men sizga murojaat qilaman. Chunki hayot mening ro'paramga kuchim yetmaydigan bir muammoni ko'ndalang qo'ydi.

Men istagimni qisqacha ifodalashga harakat qilaman. Yoshim ellikda. Uch farzandning onasiman. Erim ham musulmon. Ammo nikohimiz qonuniy emas (ya'ni, diniy nikoh qilmadik). Bolalarimiz nasroniy diniga ishonishadi. Qizim o'n uch yoshda, bir o'g'lim

yigirma uch yoshda. U Peterburg Texnologiya institutida o'qiydi. Yana bir o'g'lim yigirma bir yoshda. U Moskvadagi Alekseev Harbiy maktabida ofitser. O'g'illarim otalarining diniga o'tish uchun mendan ruxsat so'rayapti. Men nima qilishim kerak? Men bilamanki, hozir bu mumkin va ayni paytda mamlakatimizda yashayotgan begona vatandoshlar (xorijliklar) bilan munosabatlar ham durust emasligi menga ma'lum. Ularda (farzandlarimda-tarj.) bu fikrning paydo bo'lishiga kichik oilaviy masalalar sabab bo'lgan emas. Na moddiy manfaat, na maqom-martabaga qiziqish ularni bunga undayapti. Ularning faqat zulmatda qolgan tatar xalqiga yordam berish niyatlari bor. Ularning xalqqa qo'shilishi va yordam berishiga dinlari to'sqinlik qilmoqda. Ammo men o'z fikrim, maslahatim bilan ularni yomon yo'lga boshlab qo'yishdan qo'rqaman. Men o'z dardim bilan yolg'izman...

Oh... Agar men o'z dardlarimni va iztiroblarimni sizga yoza olsam... Men bu maktubni o'z farzandlarini telbalarcha sevuvchi bir onaning ko'z yoshlari ila yozyapman. Endi azobdan aqldan ozgan bir holda sizdan maslahat so'rashga jazm qildim. Siz, ha, faqat Siz o'z aqlingiz bilan hayotimizdagi bugungi vaziyatda bu masala qanday natija bilan tugashini seza olasiz. Mening dardim sizga kichik va oddiygina bo'lib ko'rinishi mumkin, biroq bu dard menga dahshatli azob bermoqda.

Lev Nikolayevich, siz bizdan, biz kabi kichik insonlardan chin yurakdan, samimiy qimmatli tavsiyalaringsizni hech qachon darig' tutmagansiz. Buni bilganim uchun ham jur'at qilib, Sizni bezovta qildim. Meni tasalli oloviga oting. Qimmatli vaqtingizni olganim uchun uzr so'rayman. Bunga jur'at topishga meni majburlagan narsa telbalarcha onalik sevgisidir.

Butun qalbi bilan sizga bog'langan

Yelena Yefimovna Vekilova.

Tbilisi, Uchebni'y tor ko'chasi, 1. 8-uy.

Tolstoyning Javob Xati

Tolstoy 1909 yil 15 mart kuni Yasnaya Polyanadan yuborgan javob xatida bunday yozgan edi:

Yelena Yefimovna (Vekilova)ga

O'g'illaringiz tatar xalqining ilm-ma'rifatli bo'lishiga yordam bermoq orzusini taqdirlamaslik mumkin emas. Shunday bo'lsa-da, Muhammadning dinini qabul qilish qay daraja lozimligini ham tushuntirib berolmayman. Umuman, sizga aytishim kerakki, hukumatga ma'lum qilib o'tirmasdan qaysi dinga e'tiqod qilishni har kim o'zi hal qilishi kerak, deb o'ylayman. Shunday ekan, o'g'illaringizning ham Muhammadning dinini nasroniylikdan ustun ko'rib, uni qabul qilishi, ya'ni bir dindan boshqa bir dinga o'tishi haqida hech kimga ma'lumot berishi shart emas. Balki bu (xabar bermaslik - tarj.) zaruriydir. Albatta, men bu xususda qat'iy bir narsa deya olmayman. Farzandlaringiz ham bu masalada hukumat organlariga xabar berish-bermaslikni o'zlari hal qilishlari kerak.

Musulmonlikning nasroniylikdan ustunligiga va, ayniqsa, farzandlaringiz xizmat qilmoqchi bo'lgan g'oyaning oliyjanobligiga butun qalbim bilan ishonaman.

Xristian ideali va ta'limotini har narsadan baland tutgan bir inson uchun buni aytish g'oyat g'alati bo'lsa-da, aytishim kerakki, musulmonlik o'ziga xos tashqi ko'rinish jihatidan ham cherkov xristianligidan qiyos qilib bo'lmas darajada ustun ekanligi menda hech bir shubha uyg'otmaydi. Agar bir kishiga cherkov xristianligi yoxud Islom diniga kirish borasida tanlash ixtiyori berilsa, o'ylaymanki, har bir aqlli odam murakkab va tushunarsiz ilohiyotdan, uch sifatli Ollohdan, gunohdan chiqarish marosimiyu boshqa diniy udumlardan, Isoning onasiga yolvorishidan, «Muqaddas shaxslar» va ularning rasmlari oldidagi son-sanoqsiz ibodatlardan ko'ra yagona Ollohn va Uning payg'ambarlarini; Islom dinini, albatta, ustun ko'radi. Boshqacha bo'lish ham mumkin emas.

Ayrim-ayrim shaxslar, butun insoniyat va barcha kishilar hayotining asosini tashkil etgan diniy shuur mukammallashgan kabi hayotda ham har narsa rivojlanadi va mukammallashadi. Dinning rivojlanib mukammallashuvi esa uning soddalashuvidan, tushunarli bo'lishidan va uni tushunarsiz qilgan turli narsalardan qutilishdan iborat. Diniy haqiqatlarni tushunarsiz qilgan turli narsalardan tozalash eng qadim zamonlardan beri dinlarning asosini qo'ygan mutafakkirlar tomonidan hayotga tatbiq qilingan. Chunonchi bizga ma'lum barcha dinlarda bunday yuksak din tushunchasi dastlab Vedaning (Hinduizm) kitoblarida, keyinroq Muso, Budda, Konfutsiy, Lao Szi, nasroniylik va Muhammadning ta'limotlarida berilgan. Dinni eski dag'al ma'nosidan qutqarib, yanada teranlashtirgan, kishilarning sodda aqliga mos haqiqatlar bilan uni o'zgartirgan barcha yangi din namoyandalari buyuk kishilar bo'lishgan. Biroq ular ham haqiqatni to'la-to'kis, aniq-ravshan va soddaligi, sofligicha eski noto'g'ri fikrlardan butkul tozalangan holda ifoda etisholmagan. «Bu kishilar xato qilmaydi, ularning barcha fikrlari inkor qilinmaydigan haqiqat» deb faraz qilganimizda ham, ulardan birmuncha quyiroqdagi shogirdlari (talabalari) haqiqatni to'la-to'kis tushunmay, uni yanada jimjimador va hammaga mos holga keltirish orzusida unga juda ko'p keraksiz qo'shimchalar, ajoyib-g'aroyib narsalarni aralashtirib yuborganlari bois asl haqiqatni anglash anchayin qiyinlashdi.

Haqiqatning din tomonidan bunday o'zgarishlarga uchragani qancha ko'p e'tirof etilgani sayin bu buzilishlar shunchalik ortdi va pirovardida dinga xizmat qilganlar tomonidan kashf etilgan asl haqiqat qorong'ulikda qolib ketdi. Inchun, eng qadimgi dinlarda haqiqatni yashirgan mo'jiza va uydirmalar hammasidan ko'pdir. Bu, eng ko'p eski din - braxman dinida, undan ozroq yahudiy dinida, undan ozroq budda, konfutsiy, laoizm dinlarida, ulardan yanada ozi nasroniy dinida va nihoyat eng ozi so'nggi din bo'lgan islom dinida bor. Bu jihatdan musulmonlik eng qulay vaziyatdadir.

Islom dini, o'zidagi xorijiy, tabiiy bo'lmagan barcha narsalarni tashlasa va o'z tamaliga Muhammadning diniy-ma'naviy ta'limotlarining tamoyillarini qo'ysa-tabiiyki, u barcha dinlarning asoslari va, xususan, haqiqatni e'tirof etgan xristian ta'limoti asoslari bilan birlashardi.

Bunday uzundan-uzun yozishdan maqsad, shoyad mening fikrlarim sizga dinlarining go'zal tushunchalarini hayotga tatbiq etishga nafi tegsa. Dinning mohiyatini tashkil etuvchi buyuk haqiqatlarni qorong'ulashtirgan har bir narsadan tozalanishga yordam bermoq inson qilishi mumkin bo'lgan eng go'zal amallardan biridir. Agar farzandlaringiz bu ishlarni oilaviy bir burch deb bilsalar, o'shanda ularning hayoti to'la va mukammal bo'lajak.

Bilmadim, musulmonlikdagi noto'g'ri fikrlardan va mavhum mulohazalardan qutilishga ko'maklashishini iddao qilayotgan ikki qarash (oqim) sizga va farzandlaringizga ayonmi-yo'qmi?

Men nazarda tutgan har ikki guruh tadqiq qilingan va ular hali ham o'rganilmoqda. Bu guruhlardan biri Eronda paydo bo'lgan, so'ngra Turkiyaga o'tgan va u yerda o'rnatishga uringan bahoiylikdir. Bahoiylik Makkada yashagan Bahoulloh o'g'illarining nomi bilan maydonga chiqqan. Biroq barcha insoniyat uchun yagona bo'lgan, sevgi-muhabbat qozongan dinni qabul qilgan bu mazhab ibodatning hech bir shaklini tan olmaydi .

Ikkinchisi Qozonda paydo bo'lgan. Uning tarafdorlari o'zlarini tashkilotchilarining nomi bilan atashib, «Alloh lashkari» yoki «Vaisovchilar» deyishadi. Bular e'tiqodning aslini sevgida bilishadi. Hamda sevgiga zid har narsadan uzoq turishadi. Bu mazhab yoxud tariqat ham kuzatilmoqda, rahbarlari ushlanib, qamoqqa olinmoqda.

Agar mening fikrlarim bir narsaga yarasa, siz yoki o'g'illaringiz o'z faoliyatlari haqidagi qarorlarini menga bildirsalar, xursand bo'laman.

Lev Tolstoy

Ko'rinadiki, onaning yozgan xati Tolstoyni nihoyatda hayajonga solgan. Buni to'rt betlik va shoshilinch yozilgan xatdan tushunib olish mumkin. Lev Tolstoyning «Musulmonlik o'ziga xos tashqi ko'rinishi jihatidan ham cherkov xristanligidan qiyos qilib bo'lmas darajada ustun ekanligi menda hech bir shubha uyg'otmaydi» degan fikri ularning oilaviy iztiroblariga barham beruvchi bir javob bo'ldi. Maktub oilada hukm (buyruq) kabi o'qilib, qonun kabi qabul etildi.

Tolstoyning xatidan keyin Tbilisidagi Zakavkaz'e Diniy idorasi general Ibrohim Og'a Vekilovning farzandlarini musulmonlikka qabul qildi va ularga Mufti Mirzo Husayn Afaqli Qayibzodaning imzosi bilan rasmiy guvohnoma berdi. Bolalarning ismi o'zgartirilib Boris-Foris, Gleb esa G'olib deya rasmiylashtirildi.

Lev Tolstoy Yelena Vekilovaga yozgan xatning asl nusxasini Yelenaning o'g'li Foris 1978 yili Moskvadagi Lev Tolstoy nomidagi muzeyga topshirgan. Yozishmalar hozir ham muzeyda saqlanmoqda.

Yasnaya Polyana Qaydlari

Daho yozuvchi Lev Tolstoy islom diniga e'tiqodini faqat Vekilovlarga yozgan maktublari orqaligina izhor etmagan. Tolstoy bilan qalamkash do'stlari va ko'ngil yaqin kishilar o'zlarining Islom dini, Hazrati Muhammad (s.a.v.)ning shaxsiyati to'g'risidagi mulohazalarini bayon etib, xatlar yozishgan, suhbatlar qurishgan. Tolstoyning

musulmonlikni qabul qilishi haqidagi fikrining ilk aniq ifodasi quyidagi soʻzlardan ayon boʻladi.

Asli slovak D.P.Makovitskiy Tolstoyga olti oy shaxsiy doktor sifatida xizmat qildi. U bu vaqt mobaynida Tolstoyni koʻrishga kelgan koʻpsonli doʻstlari bilan yozuvchi oʻrtasidagi suhbatlarni qayd qilib bordi. Va nihoyat «1904-1910 yillarda Tolstoyning yonida» nomli katta asar yozdi. 4 jildli bu kitob 1979 yilda «Yasnaya Polyana xotiralari» nomi bilan ilk marta Moskvada nashr etildi. Kitobning 3-jildi 356-betida esa Tolstoyning oilaviy suhbatlari keltiriladi. Kitobxon bu suhbatlardan Tolstoyning general Ibrohim Vekilovning xotini iztiroblariga hamdard boʻlgani va uning Islom dinini chin qalbdan sevganiga yana bir bora guvoh boʻladi.

Qarang, Tolstoyning doktori Dushan Petrovich Makovitskiy bu holatni qanday bayon qiladi: «1909 yili mart oyining 13-kuni Lev Nikolevich Tolstoy bir suhbat davomida bunday dedi: «Bir onadan xat oldim. Yozadiki, bolalarimning otasi - musulmon, men esa xristianman. Ikki oʻgʻlim bor: biri - talaba, ikkinchisi - zobit. Har ikkisi ham islom diniga kirmoqchi».

Tolstoy bu soʻzlaridan soʻng Sofʻya Andreevna (xotini)ga shunday dedi:

— Bizda koʻpxotinlilar ozmi? Bu maktub haqida oʻylar ekanman, menga koʻp narsa oydin boʻldi. Muhammad hamisha Yevangelizmdan (nasroniylik)dan ustun turadi. Chunki u insonni Olloh deb bilmaydi. Va oʻzini ham Olloh bilan tenglashtirmaydi. Musulmonlarning «Ollohdan boshqa ilohi yoʻqdir va Muhammad Uning paygʻambaridir» degan hikmatida hech qanday muammo va sir yoʻqdir. Sofʻya Andreevna yana savol berdi:

— Qaysi biri yaxshi - nasroniylikmi, musulmonlikmi?

Tolstoy:

— Menga ravshanki, musulmonlik yanada yaxshi, yanada ustundir.

Bir oz sukutdan soʻng Lev Nikolayevich Tolstoy takrorladi:

— Musulmonlik, agar taqqoslansa, nasroniylikdan ustun ekani koʻrinadi. Musulmonlik menga juda koʻp yordam berdi.

Mixail Vasil'evich (Tolstoyning doʻsti):

— Zaporoj'elik Nekrasovchilar islom diniga oʻtibdilar...

Lev Nikolayevich Tolstoy:

— Inson (oʻzini) kashf etgach, dinning asoslarini ham, taoizm, buddizm, xristianlikni ham ancha kashf qiladi. Barcha dinlarning asoslari birdir. Vaqt oʻtgan sayin bu ham birlikka va soddalikka olib keladi...

Bir Dardli Ona - Yelena Vekilova

Mashhur yozuvchi Tolstoy bilan dardli ona - Yelena oʻrtasidagi xat yozishuvlaridan keyin qariyb 80 yil oʻtgach, 1991 yilda «Literaturnaya gazeta»ning 7-sonida general Ibrohim

Og'a Vekilovning bir shaxsiy hujjati e'lon qilindi. Bu hujjat Islom dinining barcha asoslarini o'zida jamlagan tengsiz kitob – «Qur'oni karim» haqida edi. Ayni hujjat ming-minglab rus o'quvchilariga Islom dinining asoslari haqida ochiq-oshkora jiddiy ma'lumot berdi.

Yozuvchi Lev Tolstoyning Yelena Vekilovaga yozgan xatlaridagi ayrim mulohazalarga o'rin bergan gazeta «Afsuski, Yelena Vekilovaning shaxsiyati haqida hech bir ma'lumotga ega emasmiz», deya e'tirof etadi.

Ozarboyjonda bu masalaga oydinlik kirituvchi yagona kishi bor edi. Bu - general Ibrohim Og'aning yagona nabirasi, professor Laylo G'olib qizi Vekilova edi. Harbiylar xonadonida o'sib-ulg'aygan Vekilova oilasini quyidagicha tanitadi:

— Otamning onasi (buvim) Yelena Tbilisida ofitserlar yig'inlaridan birida bobom – yosh ofitser Og'a o'g'li Ibrohim Vekilov bilan tanishgan. Bizning vekilovlar nasli Ozarbayjonning chekka shahri Qozoqdandir. Zodagon oilasiga mansub sulolamiz rasmiy hujjatlarga ko'ra 350 yildan buyon davom etmoqda. Bizning sulolamizdan o'z xalqiga, vataniga fidoyilik bilan xizmat ko'rsatgan bir necha jangchi, olim, yozuvchi va shoir yetishib chiqqan.

Ikki yosh bir-birini yaxshi ko'rishadi. Biroq ularning baxtiga diniy tafovut to'siq bo'layotgan edi. Ozarboyjon Ibrohim Vekilov - musulmon, Yelena Yermolayeva esa pravoslav (nasroniy) diniga mansub edi. U paytdagi Rossiya imperiyasi qonunlariga ko'ra, nikohdan o'tish uchun turmush qurayotganlardan biri o'z dinidan voz kechishga majbur bo'lgan. Biroq bobom (buvam) ham, momom (buvim) ham oilalaridan olgan diniy tarbiyaga qarshi chiqisholmaydi. Shunday bir vaziyatda Ibrohim Og'a Vekilov chor Rossiyasiga murojaat qiladi. Uzoq tortishuvlardan so'ng ularning turmush qurishlariga ruxsat beriladi. Ammo turmush qurgach, bu oilada dunyoga keladigan farzandlar, Rus imperatorligi qonunlariga ko'ra, pravoslav (nasroniy) diniy tarbiyasini olishi kerak edi.

Binobarin, Yelena uch bolasini - qizi Rayhona, o'g'illari - Boris va Glebni baptist qildiradi. Biroq otasi hamda qarindoshlarining ta'siri tufayli farzandlar Islom diniga mayl ko'rsatishadi va Tolstoyning tavsiyasi bois musulmon bo'ladilar...».

Tolstoy va Naqshbandiylar

Lev Tolstoyning 80 yillik yubileyi munosabati bilan tatar tilidagi gazeta va jurnallarda Lev Nikolayevich Tolstoy haqidagi ko'pgina xotiralar bosilib chiqqan. Tatarlarning mashhur yozuvchilaridan Abdulla To'qay, Fotih Amirxon, Fotih Karimiylar Tolstoy to'g'risida maqolalar e'lon qilishdi. «Fikr», «Ideal», «Vaqt», «Al-Isloh» va «Sho'ro» kabi nashrlarda Tolstoyning falsafiy qarashlari va uning dunyo adabiyotidagi o'rni haqida bahs yuritildi.

Bu maqolalar orasida tatar yozuvchilarining Tolstoy bilan yozishmalari (xatlari) ham o'rin olgan. Ulardan e'tiborni jalb etadigani esa «Iqtisod» jurnali muxbiri Fotih Murtazinning 1909 yilda Tolstoyga javob berishi uchun yuborgan 5 savoldan iborat xatidir. Tolstoyning javobi 1910 yil 9 yanvarda kelgan. Tolstoy yozgan javob xatining tatarcha tarjimasi «Iqtisod» jurnalining 1910 yil 11-sonida e'lon qilingan.

Tolstoy javobida, jumladan, quyidagilarni yozadi: «Aslida har bir din o'zicha go'zal. Hayotning ma'nosini esa dinga ishongan har inson qidirmog'i va insoniyatni sevmog'i kerak». E'tiborlisi shundaki, Lev Tolstoy javob xatlari yozish bilan cheklanmasdan jurnal muxbiri Murtazinga «Har kun uchun bir hadis» nomli bir kitobcha yuboradi. Bu kitobcha ham Tolstoy Hazrati Muhammad (s.a.v.)ning so'zlariga o'rin beradi va: «Bu ilohiy kalimalar har qanday din ahli uchun lozimdir...» deya ilova qiladi.

Jurnalda chiqqan javob maktubida Tolstoy arab tilini bilmagani bois Islomni rus missionerlaridan o'rganganligini e'tirof etadi.

Professor Doktor Elfina Sibgatullinaning ta'kidlashicha, Tolstoy nazarda tutgan missionerlar tatarlar orasida faoliyat ko'rsatgan (1860) so'fiy bir tashkilotidir. Tashkilot asoschisi Bahouddin Voisov Naqshbandiylik tariqatida bo'lsa-da, davrning ijtimoiy va hayotiy ehtiyojlariga muvofiq tariqat falsafasiga yangiliklar olib kiradigan ilg'or fikrli bir inson bo'lgan. Biroq Chor Rossiyasi yuborgan xatlarida hukumat siyosatini tanqid qilgani uchun Bahouddin Voisov surgun qilingan...

Professor doktor Elfina Sibgatullinaning e'tirof etishicha, Bahouddin Voisov Tolstoy bilan ko'rishgan va ba'zi masalalarda u bilan hamfikir bo'lgan. Hatto, Tolstoy Voisovning dinni davlatdan ajratish fikriga qo'shilgan.

3-Bo'lim: Tolstoyning E'tiroflari

Lev Tolstoy. «Iqrornoma»dan

...Umuman, tajribaga asoslangan ilmlarning hayot savoliga munosabatini bunday ifodalasa bo'ladi. Savol: «Men nima uchun yashayapman?» Javob: «Cheksiz katta fazoda cheksiz uzoq vaqt davomida cheksiz kichkina zarralar cheksiz murakkablikda turlarini o'zgartiradilar. Agar sen ana shu turlar o'zgarishining qonunini anglasang, nima uchun yashayotganingni anglab olasan».

Ilmi aqliyaga taalluqli ilmlar sohasida o'zimga o'zim shunday derdim: «Butun insoniyat ma'naviy ibtidolar va ularga rahnamolik qiluvchi ideallar asosida yashaydi va rivojlanadi. Bu ideallar dinlarda, fanlarda, san'atlarda, davlatchilik shakllarida o'z ifodasini topadi. Bu ideallar yuksalgandan yuksala boradi va insoniyat eng oliy ne'matlar sari boradi. Men insoniyatning bir bo'lagiman, shuning uchun ham mening vazifam insoniyat ideallarini anglash va amalga oshirishga ko'maklashishdir». Men aqlim qodir vaqtlarimda shu gaplarga qanoat qilgan edim, ammo ko'nglimda hayot savoli aniq-tiniq holda ko'ndalang bo'lishi bilan bu nazariya bir zumda boshdan oyoq kunpayakun bo'ldi. Avvalo shuni aytish kerakki, bunga o'xshash ilmlarda muayyan g'irromlik bor – ular insoniyatning kichik bir qismini o'rganish oqibatida chiqargan xulosalarini umumiy xulosalar o'rnida taqdim etadilar. Bundan tashqari bunday qarashlarning turfa xil tarafdorlari o'rtasida «insoniyat ideallari nimadan iborat», degan masala ustida bir-biriga zid fikrlar mavjud. Ammo eng bema'nisi demayligu, eng g'alatisi shundaki, bu nazariyaga ko'ra har bir odam qarshisida ko'ndalang bo'luvchi «Men nimaman?» yoxud «Men nima uchun yashayapman?» yoki «Men nima qilmog'im kerak?» degan savollarga javob berishdan avval inson bitta masalaga javob bermog'i lozim. Bu masala quyidagicha turur: «Butun bir insoniyat bor.

Uning nima ekani menga ma'lum emas. Men uning bir zarrasiman, binobarin, shu zarraning qisqagina bir muddat mobaynidagi hayotini bilaman. Shunga qaramay, men «butun insoniyatning hayoti nimadir? degan masalani hal qilib berishim kerak». Binobarin, odamzod o'zining nima ekanini anglamoq uchun uning o'zi kabi hali o'zligini anglab yetmagan ayrim-ayrim odamlardan tashkil topuvchi sirli imkoniyatning nima ekanini anglab olmog'i zarur.

E'tirof etmog'im kerakki, men bunga ishongan chog'larim bo'lgan. U chog'larda mening o'z sevimli ideallarim bor edi, bu ideallar mening injiqliklarimni oqlar edi. O'shanda men bir nazariyani yaratish ishtiyoqida edim. Bu nazariyaga asoslanib, men o'z injiqliklarimga insoniyat qonuni sifatida qaramog'im mumkin bo'lardi. Ammo mening ko'nglimda hayot savoli butun ravshanligi bilan ko'ndalang bo'lgani hamon, bu javob ham qoqigulday to'zib ketdi. Shunda angladimki, xuddi tajribaga asoslangan ilmlarda haqiqiy ilmlar bilan bir qatorda o'zlariga tegishli bo'lmagan savollarga javob berishga urinadigan chala ilmlar bo'lgani kabi bu sohada ham o'zlariga tegishli bo'lmagan masalalarga javob berishga harakat qiladigan bir qator ilmlar bo'lib, ular ancha keng tarqalgan ekan. Bu sohaning chala ilmlari - huquqshunoslik, ijtimoiy ilmlar, tarixshunoslik – ayrim inson masalalarini hal qilishga kirishganida u qolib ketib, har qaysisi o'ziga xos tarzda butun insoniyat hayotining masalalarini hal qilishga kirishib ketadilar.

Ammo tajribaga asoslangan ilmlar sohasida «qanday yashamog'im kerak?» deb chin yurakdan so'raydigan odam «cheksiz makonda cheksiz zamonda cheksiz murakkablik bilan sodir bo'ladigan cheksiz zarralar o'zgarishini o'rgan, shunda sen hayotingni anglaysan» degan javobga qanoat hosil qilolmaydi. Xuddi shunga o'xshash samimiy odam «biz insoniyatning na ibtidosini, na intihosini bilamiz, biz uning kichik bir qismini ham bila olmaymiz. Lekin sen ana shu insoniyatni yaxlit olib, uning nimaligini angla. Shunda o'zingning kimligingni anglab olasan» degan javobga ham qanoat qila olmaydi...

* * *

«Hamma narsaning va hammaning qismati bir. Batavfiq odamning ham, betavfiqning ham, yaxshi va yomonning ham, pokiza va iflosning ham, qurbonlik qilgan va qilmaganning ham, sersaxovat va gunohkorning ham, qasamxo'r va qasamdan qo'rquvchining ham qismati bitta. Yorug' dunyodagi hamma ishlarda qismatning bitta ekani yomon, shu tufayli bani odamning yuragi yomonlikka to'la, ularning yuragidan aql qochgan, hayotlaridan ham aql ketgan. Shundan keyin ular o'tganlar safidan o'rin oladi. Tiriklar orasida qolganlar hali nimalardandir umidvor bo'ladi, negaki, o'lik arslon bo'lgandan ko'ra tirik kuchuk bo'lgan yaxshi. Tiriklar vaqti-soati yetib, qazo topishlarini biladilar, o'liklar esa hech narsani bilmaydilar, ular ortiq inoyat ko'rmaydilar, negaki, ularning xotirasi ham unut bo'lgan, ularning muhabbati ham, ularning nafrati ham, ularning rashki ham g'oyib bo'lib bo'lgan, bu yorug' dunyoda endi ular hech narsa bilan sharaflanmaydilar». Sulaymon payg'ambar shunday deydi. Yoxud shu so'zlarni yozgan odam shunday deydi.

Endi hind donishmandlari nima deyishini eshiting:

«Yosh baxtiyor shahzoda Sakna-Muniga xastaliklar, qarilik, o'lim begona edi. Kunlardan birida u saylga bordi va tishlari to'kilib ketgan, so'laklari oqib yotgan, munkillagan bir

cholni ko'radi. Shu paytgacha qarilikni ko'rmagan shahzoda aravakashdan buning nimaligini, nima sababdan bu odam shu qadar ayanchli va xunuk ahvolga tushganini so'raydi. Bunday qismat hamma odamlarning boshida bor ekanini, yosh shahzoda ham vaqti-soati kelib, albatta, shu ahvolga tushajagini eshitib, shahzoda saylga borgisi kelmay qoladi va bu gaplarning hammasini o'ylab ko'rmoq uchun orqaga qaytishni buyuradi. Uyga yetib borgach, ichkariga bekinib olib, o'ylashga boshlaydi. Bir necha muddat o'tgach, shahzoda bir narsadan taskin topadi. U yana shodu xurram va baxtiyor kayfiyatda saylga yo'l oladi. Bu gal unga bemor ro'para keladi. Uning ko'z o'ngida o'lguday toliqqan, ko'karib ketgan, ko'zlaridan nur ketgan, dag'-dag' qaltiroq bosgan bechorahol bir odam gavdalanadi. Shu paytgacha xastalik nima ekanini bilmagan shahzoda to'xtab, nima gap ekanini so'raydi. Shunda bu xastalik ekanini, hamma odamlar xastalikka uchrashi mumkinligini, uning o'zi sog'lom va baxtiyor yurgan shahzoda ham, ehtimol, ertaga shunaqa bemor bo'lib qolishi mumkinligini eshitib, kayfi buziladi, kayfi chog'liq qilishga xushi qolmaydi va uyga qaytishni buyuradi. U uyida yana o'zicha biror taskin izlaydi va uni topadi, shekilli. Chunki u yana bir marta ham yo'lda bir voqeaga yo'liqadi - odamlar nimadir ko'tarib ketayotganini ko'radi. «Nima bu?» - «Bandalikni bajo keltirgan odam». – «Bandalikni bajo keltirish qanaqa bo'ladi?»-deb so'raydi shahzoda. - «Bandalikni bajo keltirish shu odamga o'xshab jon taslim qilish bo'ladi», - deb javob berishadi. Shahzoda tobutning oldiga boradi, pardani ko'tarib mayitning yuziga qaraydi. - «Bu odam endi nima bo'ladi?» - deb so'raydi shahzoda. - «Uni yerga ko'madilar», - deb javob berishadi shahzodaga. - «Nega?» - «Negaki, endi u hech qachon boshqa tirilmaydi, u chirib-iriydi, keyin tuproqqa aylanadi». - «Hamma odamlarning ham qismati shunaqami? Men ham shu ko'yga tushamanmi? Meni ham ko'mishadimi? Men ham irib-chirib, qurtlarga yem bo'lamanmi?» - «Ha». - «Orqaga qayt! Men sayrga bormayman. Bundan keyin hech qachon hech qanaqa sayrga bormayman».

Shunday qilib, Sakna-Muni hayotdan taskin topa olmadi va «hayotning turgan-bitgani ulug' bir yovuzlikdir» degan to'xtamga kelib, butun qalb kuchini undan xalos bo'lishga va boshqalarni undan xalos etishga sarfladi. «Xalos etganda ham shunday qilmoq kerakki, odamning vafotidan keyin hayot bir amallab qayta tiklanmasin, uni butunlay, tag-tugi bilan, tubdan mahv etish kerak». Hind donishmandlari shunday deydi.

Insoniyat donolari hayot savollariga bergan bevosita javoblar bunday turur:

«Jismning hayoti yovuzlikdan va yolg'ondan iborat. Shuning uchun ham bu jism hayotini mahv etish ne'matidir, biz shu ne'matni tilamog'imiz darkor», - deydi Suqrot.

«Hayot shunaqa narsaki, uning boridan yo'g'i yaxshiroq bo'lardi. Hayot - yovuzlik, yovuzlikdan hechlikka ko'chish hayotdagi birdan-bir ne'matdir», - deydi Shopengauer.

«Dunyodagi hamma narsa - hamoqat ham, donolik ham, boylik ham, qashoqlik ham, shod-xurramlik va qayg'u-alam ham, hammasi behuda va arziyas narsalardir. Inson o'ladi va undan hech narsa qolmaydi. Bu bema'nilikdir», - deydi Sulaymon payg'ambar.

«Azob-uqubatlar, zaiflashish, qarish va o'lim muqarar ekanini anglab turib yashab bo'lmaydi, odam o'zini hayotdan xalos etmog'i, har qanday yashash imkonidan mahrum etmog'i kerak», - deydi Budda.

Ana shu katta aql egalari aytgan narsalarni ularga o'xshagan million-million odamlar ham aytgan, o'ylagan, his etgan. Men ham shunday o'ylayman va shunday his qilaman.

Shunday qilib, mening bilimlar o'rmonida dovdirab yurishim na faqat meni tushkunlik botqog'idan xalos eta oldi, aksincha, uni yanada chuqurlashtirdi. Bir sohadagi bilimlar hayot savollariga javob bermadi, boshqa sohadagi bilimlar esa javob berdi-yu, bu javobi bilan to'g'ridan-to'g'ri mening tushkunligimni tasdiqladi. Bu javob yana shuni ko'rsatdiki, men chiqargan xulosa adashishlarimning hosilasi emas, xasta tafakkurimning mahsuli emas, aksincha, u mening o'ylarim to'g'ri bo'lganini tasdiqladi. Mening o'ylarim insoniyatning eng baquvvat aql egalarining xulosalariga to'g'ri keldi.

O'zini laqillatishning hojati yo'q. Hammasi - behuda. Tug'ilmagan odam baxtiyor, o'lim hayotdan yaxshi; shuning uchun hayotdan xalos bo'lmoq kerak...

* * *

Oqilona bilim meni hayotning ma'nosizligini tan olishga olib keldi, mening hayotim to'xtab qoldi va men o'zimga suiqasd qilish yo'liga tushib qoldim. Tevarak atrofidagi odamlarga, butun insoniyatga o'girilib qarab turdimki, odamlar yashayapti va hayotning ma'nosini bilamiz deyishyapti. O'zimga o'girilib qaradim: men hayot ma'nosini bilganim darajada yashagan ekanman. Boshqa odamlarga o'xshab menga ham hayotning ma'nosini va yashash imkonini iymon bergan ekan.

Undan nariga o'girilib, boshqa mamlakatlarning menga zamondosh va o'tib ketgan odamlariga qarab ham yana o'sha aholining o'zini ko'rdim. Qayerdagi hayot bo'lsa, o'sha joyda insoniyat paydo bo'lgandan beri unga yashash imkonini beradigan iymon bor. Va iymonning asosiy belgilari hamma joyda va hamisha bir xil.

Har qanday iymon kimga bo'lmasin va qanday bo'lmasin javob bergan bo'lsa, iymonning har qanday javobi insonning cheklangan hayotiga cheklanmagan narsaning ma'nosini baxsh etadi va bu ma'noni azob-uqubatlar, muhtojliklar, o'lim mahv etolmaydi. Binobarin, faqat iymondagina hayotning ma'nosini va yashash imkonini topish mumkin. Shunda angladimki, so'zning eng muhim ma'nosida olib qarasak, iymon «ko'z ilg'amas buyumlarni» va hokazolarni fosh qilishgina emas, karomatgina emas (bu iymonning sifatlaridan birining tasviri, xolos), insonning Xudoga munosabatigina emas (Xudo orqali iymonni belgilash kerak emas, avval iymonni belgilab olib, so'ngra Xudoni belgilash lozim), ko'pincha, iymonni mana bunday tushun deb odamga aytilgan gaplarga qo'shilishgina emas, balki iymon inson hayotining ma'nosini bilishdir va shu bilimi vajidan inson o'z-o'zini mahv etmaydi, balki yashaydi. Iymon hayotning qudratidir. Inson yashar ekan, u biror narsaga ishonadi, iymon keltiradi. Agar u «nima uchundir yashamoq kerak» deb biron narsaga ishonmasa, iymon keltirmasa, unda u yashamas edi. Agar u cheklangan narsani ko'rmasa va uning xayoliy bir narsa ekanini anglamasa, u ana shu cheklangan narsaga ishonardi; agar u cheklangan narsaning xayoliy ekanini anglasa, unda u cheksiz narsaga ishonmog'i kerak. Iymonsiz yashab bo'lmaydi.

Shunda men ichimdan kechganlarning hammasini eslab, dahshatga tushdim. Endi menga bir narsa ayon edi - inson yashay olmog'i uchun u yo cheksiz narsani ko'rmog'i kerak,

yoki hayot ma'nosini shunday tushunmog'i kerakki, buning natijasida cheklangan narsa cheksiz narsaga teng deb hisoblanmog'i shart. Menda shunday tushuncha bor edi, biroq men cheklangan narsaga ishonar ekanman, uning menga keragi yo'q edi. Shunda men uni aql tarozisida tekshira boshladim. Aql tarozisiga solib ko'rishim bilan avvalgi izohlarimning hammasi tirqirab ketdi. Ammo fursati yetib, men cheklangan narsaga ishonmay qo'ydim. Shunda men oqilona asoslarga tayanib, bilganlarimdan shunday izoh tuza boshladimki, bu izoh hayotning ma'nosini uqtirmog'i kerak edi. Ammo hech narsani tuzib bo'lmadi. Insoniyatning eng yetuk mutafakkirlari bilan birga men $O = O$ degan xulosaga keldim va bunaqa xulosaga kelganimni ko'rib rosa hayron bo'ldim. Holbuki, o'shanda boshqa hech qanaqa xulosaga kelib bo'lmas edi.

Tajribaga asoslangan bilimlardan javob izlaganimda men nima qilgan edim? Men nima uchun yashayotganimni bilmoqchi bo'lgan edim va buning uchun o'zimdagi tashqaridagi hamma narsani o'rganishga tutingandim. Ravshanki, men juda ko'p narsa bilmog'im mumkin edi, ammo o'zimga kerak hech narsani bilolmas edim.

Falsafiy bilimlardan javob izlaganimda nima qilgan edim? Mening ahvolimga tushib qolgan, menga o'xshab «nima uchun yashayapman?» degan savoliga javob topolmagan odamlarning fikrlarini o'rgandim. Ravshanki, men o'zim bilgan narsadan, ya'ni «hech narsani bilib bo'lmaydi» degan xulosadan boshqa hech narsani bila olmas edim.

Men nimaman o'zi? Cheksiz narsaning bir qismiman. Masalaning butun mohiyati ana shu ikki so'zda ifodalangan. Nahotki, faqat kechagi kundan boshlabgina insoniyat bu masalani o'z oldiga ko'ndalang qo'ygan bo'lsa? Nahotki, menga qadar hech kim ana shu jo'n savolni, har bir aqlli bolakayning tilining uchida turadigan shu savolni o'ziga o'zi bermagan bo'lsa?

Axir bu masala odamzod bino bo'lgan zamonlardanoq anglashilganki, bu masalani hal qilmoq uchun cheklangan narsani cheklangan narsaga va cheksiz narsani cheksizga tenglashtirmoq birday kifoya emas va odamlar bino bo'lgan zamonlardayoq cheklangan narsa bilan cheksiz narsaning munosabatlari topilgan va ifodalangan.

Cheklangan narsa cheksiz narsaga tenglashtirilgan va buning oqibatida hayotning ma'nosi kelib chiqadigan tushunchalarini, Xudo, erkinlik, yaxshilik tushunchalarini biz mantiqan tadqiq qilamiz. Unda bu tushunchalar aql tanqidiga dosh berolmaydi. Bilasizmi, bu nimaga o'xshaydi? Biz bola kabi haddan tashqari o'zimizga-o'zimiz mag'rur bo'lib, o'zimizdan-o'zimiz mamnun bo'lib, soatni olamiz-da, butun ichak-chavog'ini ag'darib ko'ramiz, qo'g'irchoqdek uni xo'b o'ynaymiz, keyin esa soat yurmay qolganidan rosa hayratga tushamiz. Bu ahvol juda dahshatli bo'lmaganida haddan ziyod kulguli bo'lardi.

Cheklangan narsa bilan cheksiz narsa o'rtasidagi ziddiyatni hal qilish va hayot savoliga yashashga imkon beradigan javobni topish kerak. Bu juda qimmatga tushadi. Masalaning yagona yechimi bor. Bu yechim hamma vaqt, hamma joyda va hamma xalqlarda bo'lgan. Bu yechim zamonlar qa'ridan kelib chiqadi, u shu qadar qiyin yechimki, biz o'zimiz sira ham bunday yechimga kela olmaymiz. Ana shu yechimni o'zimiz kunpayakun qilamiz, bundan maqsad o'sha hammaga xos va biz uchun javobsiz savolni yana qo'yishdir.

Cheksiz Xudo tushunchasi, ruhning ilohiyligi, odamzod qilmishlarining Xudoga bog'liqligi, yaxshilik va yomonlik, ma'naviyat tushunchalari insoniyat hayotining ko'zlarimizdan yashirin olisliklari qa'rida ishlab chiqilgan tushunchalardir. Bu tushunchalarsiz hayotning bo'lishi ham, mening o'zimning bo'lishim ham mumkin emas. Men bo'lsam butun insoniyat bajargan bu ishni itqitib tashlab, hammasini boshqatdan o'z bilganimcha qilmoqchi bo'lib yuribman.

U paytlarda men hali bunaqa deb o'ylamas edim, ammo bu fikrlar miyamda uch bera boshlagan edi. Men, birinchidan, shuni tushintirdimki, har qancha donoligimizga qaramay, biz Shopengauer va Sulaymon payg'ambar uchovimiz g'oyatda bema'ni ahvolga tushib qolganmiz: biz hayotning yovuz narsa ekanini bilamiz, bilamizu yashashda davom etaveramiz. Bu uchchiga chiqqan bema'nilik emasmi? Men jamiki oqilona narsani haddan ziyod yaxshi ko'raman, shundoq bo'lgach, hayot bema'ni bo'lsa, hayotni mahv etish kerak. O'shanda uni inkor etadigan odam qolmaydi. Ikkinchidan, men shuni tushintirdimki, bizning hamma mulohazalarimiz behuda aylanayotgan g'ildirakday boshi berk ko'cha ichida o'ylanib qolgan. Biz har qancha yaxshi mulohaza yuritmaylik, masalaga javob ola olmaymiz, oladigan javobimiz hamisha $O = O$ bo'ladi, sababki, biz tanlagan yo'l, aftidan, xato bo'lsa kerak. Uchinchidan, shuni tushuna boshladimki, iymon tomonidan beriladigan javoblarda insoniyatning juda teran donoligi mavjud, aql asosida ularni inkor etishga men haqli emasman. Eng muhimi esa faqat shu javoblardagina hayot savollariga javob mavjud...

* * *

Men buni tushunardim, lekin bundan hech qancha yengillik ko'rmadim.

Men endi har qanday iymonni qabul qilishga tayyor edim, faqat bu iymon mendan aqlni bevosita inkor etishni talab qilmasa bo'ldi. Negaki, bunday qilinsa, yolg'on bo'lardi. Shu tarzda men kitoblardan buddizmni ham, islomni ham o'rgandim, hammadan ko'ra ko'proq ham kitoblardan, ham atrofimni qurshab olgan odamlarning hayotidan xristianlikni o'rgandim.

Tabiiyki, men hammadan avval o'z davramga mansub xudojo'y odamlarga, pravoslav dinshunoslarga, qari monaxlarga, yangi yo'nalishdagi pravoslav dinshunoslarga va hatto tavba-tazarru bilan gunohlardan poklanishni targ'ib qiluvchi yangi xristian deb atalmish toifadagi xudojo'ylarga murojaat qildim. Men ularning etaklaridan mahkam ushlab olib, ulardan iymonlari qanaqa ekanini, hayotning ma'nosini nimada ko'rishlarini surishtirdim.

Turli-tuman masalalarda ularga imkoni boricha yon berganimga qaramay, har xil bahsu munozaralardan o'zimni tiyganimga qaramasdan men bu odamlarning iymonlarini qabul qilolmas edim, chunki ko'rib turardimki, ular iymon deb atayotgan narsa hayotning ma'nosini oydinlashtiradigan emas, aksincha, xiralashtiradigan narsa edi. Ularning o'zlari ham iymonlarini qattiq tutgan bo'lsalar, buni meni iymonga olib kelgan o'sha hayot savoliga javob berish uchun emas, balki allaqanday boshqa, menga begona maqsadlar yo'lida qilishgan edi.

Bu odamlar bilan muloqotga kirishganda necha martalab mening qalbimda umid cho'g'lari yaltilladi. Shu umid cho'g'laridan keyin yana avvalgi tushkunlik, ilojsizlik holatiga qaytish men uchun juda ham iztirobli bo'ldi. Ular menga o'z diniy e'tiqodlarini qancha ko'proq va batafsilroq bayon qilib bersalar, men ularning xatolarini shuncha ravshanroq ko'rar va ularning iymonlarida hayot ma'nosining izohini topaman degan umidlarim chippakka chiqayotganini his qilardim.

Mening xafsalamni pir qilgan narsa bu odamlarning o'z diniy e'tiqodlarini bayon qilib berishayotganida men uchun hamisha yaqin bo'lgan xristian haqiqatlariga juda keraksiz va noaqliq narsalarni qo'shib yuborganlari bo'lmadi; yo'q, xafsalamni pir qilgan narsa bu emas; meni bezdirgan narsa shu bo'ldiki, bu odamlarning hayoti ham xuddi menikiga o'xshash edi. Faqat farqi shundaki, ularning hayoti o'zlari diniy e'tiqodlarini bayon qilib aytgan qoidalariga mos kelmasdi.

Men aniq his qildimki, ular o'zlarini o'zlari aldayapti va ular ham o'sha men bilgan hayot ma'nosidan boshqa ma'noni bilishmaydi, ya'ni umring o'tayotgan ekan, yashayver, hayot ne'matlaridan imkonning yetkancha istifoda qilaver. Men buni shunga qarab angladimki, agarda ular azob-uqubatlari, muhtojliklar va o'limdan qo'rqishni mahv etadigan ma'noni bildirganlarida, bulardan qo'rqmagan bo'lardilar. Holbuki ular, ya'ni mening davramga mansub bo'lgan bu xudojo'ylar xuddi menga o'xshab to'q va farovon turmush kechirishar, shu farovonlikni ko'paytirish va saqlab qolish g'amini yeyishar, muhtojlikdan, iztiroblardan, o'limdan qo'rqishar hamda dinga ishonmaydigan bizlarga o'xshab eng yaramas nafslarining gapiga kirib hayot kechirishardi, biz - dinga ishonmaydiganlardan ko'ra ular ko'proq gunoh botqog'iga botib ketishgan edi.

Hech qanaqa mulohazalar meni ularning iymoni chin ekaniga ishontira olmasdi. Meni ishontirishi mumkin bo'lgan birgina narsa bor edi – ularning xatti-harakatlari shundan dalolat bersaki, hayotning ma'nosini bilishadi; bu bilish esa ularga men uchun qo'rqinchli bo'lgan qashshoqlik, iztirob va o'limdan tap tortmaslikka imkon beradi. Bizning davrimizga mansub bo'lgan bu turfa xil xudojo'ylar orasida esa men bunday xatti-harakatni ko'rmadim. Aksincha, bunday xatti-harakatlarni men bizning davruga mansub bo'lgan dinga ishonmaydigan odamlar orasida ko'rdim, lekin bizning davrimizga mansub xudojo'ylar orasida esa zinhor-bazinhor ko'rmadim.

Shunda men tushundim – bu odamlarning iymoni men izlagan iymon emas, ularning iymoni, umuman, iymon emas, balki hayotdagi ishratbozlik taskinlaridan biri, xolos. Men yana angladimki, bu iymon, balki taskinlikka yaramasa ham, o'lim to'shagida yotib, jamiki gunohlari uchun tavba-tazarru qilayotgan Sulaymon payg'ambarni jinday xotirjam qilishga yarar, lekin u ko'pchilik odamlar uchun sira yaramaydi, chunki bu odamlarning zimmasida boshqalarning mehnatlaridan foydalanib, vaqtichog'lik qilish emas, hayotni barpo etish vazifasi yotadi. Butun insoniyat yashamog'i mumkin bo'lsin uchun, hayotga ma'no baxsh etib, yashashni davom ettirish maqsadida yashamog'i uchun, ular – yana shu milliardlar boshqa, chinakam iymonni bilmog'lari kerak bo'ladi. Axir, iymonning mavjudligiga meni ishontirgan narsa – Sulaymon payg'ambar bilan Shopengauer uchovimizning o'zimizni-o'zimiz o'ldirmaganimiz bo'lgani yo'q, balki milliardlab odamlarning hayot kechirib

kelgani va hamon yashayotgani, men bilan Sulaymon payg'ambarlarni o'z hayot to'liqlarida ko'tarib kelganlari bo'ldi.

Shunda men qashshoq, oddiy, o'qimagan xudojo'ylar bilan, turli-tuman darveshlar, monaxlar, mujiklar bilan topisha boshladim. Xalqdan chiqqan bu odamlar ham xuddi bizning davraga mansub qalbaki xudojo'ylar kabi xristian diniy e'tiqodiga ega edilar. Ularning xristian haqiqatlariga ham juda ko'p xurofot aralashgan edi, biroq farqi shunda ediki, bizning davrimizga mansub xudojo'ylarning xurofotlari ularning o'ziga mutlaqo kerak emas edi, ularning turmushiga sira mos tushmasdi, faqat o'ziga xos ishratbozlik ermagi edi xolos; mehnatkash xalqdan chiqqan xudojo'ylarning xurofotlari esa ularning turmushi bilan shu qadar yaqindan bog'langanki, bu xurofotlarsiz ularning hayotini tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Bu xurofotlar ularning yashashining zaruriy sharti edi. Bizning davraga mansub xudojo'ylarning butun hayoti ularning iymoniga butunlay zid edi, mehnatkash xalqqa mansub xudojo'ylarning butun hayoti ularning iymoni bergan hayot ma'nosini to'la tasdiqlar edi. Shunda men bu odamlarning hayoti va e'tiqodlariga sinchiklab qaray boshladim va qaraganim sari chuqurroq amin bo'la bordimki, bu odamlarning iymoni chin iymon, bu iymon ular uchun juda zarur va yolg'iz shu iymongina ularga hayotning ma'nosini va yashash imkonini beradi. Bizning davramizda iymonsiz ham yashayveradiganlar ko'p, ularning orasida zo'rba-zo'r mingtadan bittasi o'zini xudojo'y deb tan olishi mumkin. Bunga qarama-qarshi o'laroq, ularning muhitida mingtadan bitta Xudoga ishonmaydigan odam topilishi amri mahol. Bizning davramiz odamlarining hayoti bekorchilik ichida ermaklar bilan o'tadi va yana hamma hayotdan norozi bo'ladi. Bu odamlarning butun hayoti esa og'ir mehnat ichida kechadi va ular badavlat odamlarga qaraganda hayotdan kamroq norozi bo'lishadi. Bizning davramizga mansub odamlar muhtojliklar va azob-uqubatlar uchun taqdirdan ko'proq noliydilar va unga qarshilik ko'rsatadilar. Bunga qarama-qarshi o'laroq oddiy odamlar xastaliklar va g'am-g'ussalarni hech qanday noroziliksiz, qarshilik ko'rsatmasdan, xotirjam qabul qiladilar. Ular qat'iy ishonadilarki, bularning hammasi huddi shundoq bo'lmog'i kerak, boshqacha bo'lishi mumkin ham emas, bularning bari – Xudoning ne'mati. Biz qancha aqlli bo'lsak, hayotning ma'nosini shuncha kam tushunamiz, iztiroblar chekamiz va qazomizni allanechuk yovuz bir masxara deb hisoblaymiz. Bunga qarama-qarshi o'laroq oddiy odamlar osoyishta bir tarzda hayot kechiradilar, iztiroblar chekadilar va o'z qazolari sari boradilar. Ular iztirob chekkanda ham qandaydir xotirjam bo'ladilar hatto, mamnuniatlari sezilib turadi. Bizning davramizda xotirjam jon taslim qilish, nola-fig'onsiz, tushkunlikka berilmay vafot etish kamdan-kam uchraydigan voqea. Bunga qarama-qarshi o'laroq, xalq orasida nola-fig'on bilan, isyon ko'tarib, g'am-g'ussaga botib jon taslim qilish haddan tashqari kam uchraydi. Bu odamlar biz Sulaymon payg'ambar bilan o'zimiz uchun hayotning yakka-yu yagona hisoblanadigan juda ko'p narsalaridan mahrum, lekin shunga qaramay ular o'zlarini benihoya baxtiyor deb biladilar. Bunday odamlar haddan tashqari ko'p.

Men tevarak-atrofimga kengroq nazar tashladim. Mendan avval o'tgan va men bilan bir zamonda yashayotgan son-sanoqsiz odamlarning hayotiga chuqurroq nazar tashladim. Va shunda hayotning ma'nosini anglagan, yashashni va jon taslim qilishni biladigan ikkita, uchta, o'nta emas, yuzta, mingta, millionta odamni ko'rdim. Fe'li atvori, aqli, ma'lumoti,

mavqeiga ko'ra haddan tashqari xilma-xil bo'lgan bu odamlarning hammasi menga qarama-qarshi o'laroq hayotning ma'nosini bab-baravar darajada mukammal bilishardi, muhtojliklar va azob-uqubatlarini boshlaridan kechirib, xotirjam mehnat qilishardi, umrguzaronlik qilib vafot etishardi va bunda ma'nosiz, behuda narsani emas, ulug' bir ne'matni ko'rishardi.

Shunday qilib, men bu odamlarni yaxshi ko'rib qoldim. Men tirik odamlarning hayotiga qancha chuqur kirib borsam, men kitoblarda o'qigan va eshitgan shunga o'xshash odamlarning o'tib ketgan hayotlariga qancha chuqur kirib borsam, ularni shuncha ko'proq yaxshi ko'rdim va o'zim uchun ham yashash shuncha yengil bo'lib qoladi.

Shu ahvolda ikki yilcha hayot kechirdim va menda inqilob sodir bo'ldi. Bu inqilob menda anchadan beri pishib yetilib kelardi, uning uchqunlari hamisha men bilan birga edi.

Menda shunday inqilob sodir bo'ldiki, oqibatda bizning davramizning hayotini, badavlat, olim odamlarning hayotini jinimdan battar yomon ko'rib qoldimgina emas, bu hayot men uchun butkul ma'nosini yo'qotdi.

Bizning hamma xatti-harakatlarimiz, ilm, san'at - bularning bari menga bir ermakday, tantiqlikday ko'rinib qoldi. Angladimki, bundan ma'no izlab bo'lmaydi. Hayotni ijod qiluvchi mehnatkash xalqning xatti-harakati esa menga birdan-bir arziydigan haqiqiy ish bo'lib ko'rindi. Shunda angladimki, shu hayotga ato qilingan ma'no haqiqatdir. Va men bu haqiqatni qabul qildim.

* * *

G'alati bir manzara: odamlar diniy e'tiqodlariga sig'inib, ularga zid tarzda hayot kechirganlarini ko'rganimda shu e'tiqodlardan bezib ketgandim. Ammo odamlar xuddi shu e'tiqodlarining o'ziga amal qilib yashaganlarini ko'rganimda ular menga g'oyatda jozibador va oqilona ko'rindi. Shunda men nega bir vaqtlar bu e'tiqodlardan bezganimni, nega ularni ma'nosiz deb hisoblaganimni, endilikda esa nima sababdan ularni qabul qilganimni va juda ma'nodor deb hisoblayotganimni tushundim.

Men noto'g'ri fikr yuritganim uchun adashgan emas ekanman, balki gunohkorona hayot kechirganim uchun adashgan ekanman.

Men angladim - haqiqat yuzini mendan yashirgan narsa fikrlarimdagi xatolik bo'lmagan ekan, balki favqulodda ishratbozlik sharoitida, maishatparastlik sharoitida, baloi nafsni qondirish yo'lida o'tkazgan hayotim bo'lgan ekan. Yana angladim - «mening hayotim nima?» - degan savolim va «yovuzlik» deb bergan javobim mutlaqo to'g'ri bo'lgan ekan. Xatolik shunda bo'lgan ekanki, faqat mengagina taalluqli javobni butun hayotga nisbatan qo'llabman. «Mening hayotim nima?» - deb o'z-o'zimdand so'rab, «yovuzlik va ma'nosizlik», - deb javob olganman. Chindan ham mening hayotim baloi nafsni qondirishga qaratilgan bo'lgan va shuning uchun ma'nosiz va yovuz narsa» degan javob, umuman, odamlar hayotiga emas, yolg'iz mening hayotimga taalluqlidir. Men keyinchalik Injilda topganim haqiqatni angladim - unga ko'ra odamlar yorug'likdan ko'ra ko'proq

zulmatni yaxshi ko'rganlar, negaki, ular yovuz ishlarini ko'p qilishgan. Sababki, yomon ish qiladigan har bir odam yorug'likni juda yomon ko'radi va ishlari fosh bo'lishidan qo'rqib, yorug'lik sari bormaydi.

Men angladimki, hayotning ma'nosini tushunmoq uchun hammadan avval hayotning o'zi ma'nosiz va yovuz bo'lmasligi kerak, shundan keyingina aql bilan uni tushinib olsa bo'ladi. Men o'z-o'zidan ko'rinib turgan ana shu haqiqat tegrasida nima uchun bu qadar uzoq o'ralashib qolganimning sababini tushindim - insoniyatning hayoti to'g'risida gapirib, o'ylaydigan bo'lsang, hayotdagi bir nechta tekinxo'rlarning emas, insoniyatning hayoti to'g'risida o'ylash va gapirish kerak. Bu haqiqat $2 \times 2 = 4$ ga o'xshash hamisha haqiqat bo'lib kelgan, lekin men uni tan olgan emasman, chunki $2 \times 2 = 4$ ekanini tan olsam, men o'zimning yaramas odam ekanimni tan olmog'im kerak edi. Holbuki, $2 \times 2 = 4$ ligidan ko'ra o'zimni yaxshi odam deb his etish men uchun muhimroq va zarurroq edi. Men yaxshi odamlarni sevib qoldim, o'zimdano-o'zim nafratlanib ketdim. Endi menga hamma narsa ravshan bo'ldi.

Mabodo butun umrimni qiynoqlarda odamlarning boshini olish bilan o'tkazgan bir jallod yoki butun umrini bir qorong'i xonada o'tkazgan, bu xonasini najosatga to'latib, iflos qilib tashlagan va «shu xonadan chiqsam muqarrar halok bo'laman» degan fikrni singdirib olgan biror uchchiga chiqqan piyonista yoxud jinni o'z-o'ziga «hayot nima?» deb savol bersa nima bo'lardi? O'z-o'zidan ayonki, «hayot nima» degan savolga ular «hayot eng katta yovuzlikdir» degan javobdan boshqa javob ola bilmas edilar. Bunda jinnining javobi mutlaqo to'g'ri bo'lardi, biroq faqat uning o'zi uchun to'g'ri bo'lardi. Unda qandoq bo'ladi – men ham o'shanga o'xshagan bir telbamanmi? Nahotki bizning hammamiz – badavlat, o'qimishli odamlar shunga o'xshash telba bo'lsak?

Shunda angladim – ha, biz chindan ham ancha shunaqa telbalarmiz. Har holda, men muqarrar tarzda ana shunaqa telbaman. Darhaqiqat, qush shunday hayot kechiradiki, u uchmog'i, ovqat jamg'armog'i, in qurmog'i kerak. Qush shunday qilayotganini ko'rsam qushdan xursand bo'laman. Echki, quyon, bo'ri shunday hayot kechirishadiki, ular qorinlarini to'yg'azishi, urchishlari, oilalarini boqishi kerak. Ularning shunday qilayotganlarini ko'rsam men qat'iyon ishonamanki, ular baxtiyor va ularning hayoti oqilona. Xo'sh, inson nima qilmog'i kerak? U ham xuddi jonivorlar qilgan ishlarni qilib hayot kechirmog'i kerak, faqat farq shundaki, bu ishlarni inson yolg'iz o'zi qilsa, u muqarrar tarzda halok bo'ladi, u faqat o'zi uchun emas, hamma uchun qilmog'i zarur. U hamma uchun bu ishlarni qilayotganini ko'rsam, men qat'iyon ishonamanki, u baxtiyor va uning hayoti oqilona. Xo'sh, men o'zimning o'ttiz yillik ongli hayotimda nima qildim? Men nafaqat hamma uchun hayotni barpo etganim yo'q, men loaqal o'zim uchun ham tirikchilik arkonlarini yaratganim yo'q.

Men bir tekinxo'r tarzida hayot kechirdim va o'z-o'zimdano «nimaga yashayapman?» deb so'radim-da, «hech narsaga» deb javob oldim. Agar inson hayotining ma'nosi tirikchilik arkonlarini barpo etishda bo'lsa, men o'ttiz yil mobaynida bu arkonlarni barpo etish o'rniga o'zimni ham, boshqalarda ham ularni yo'q qilish bilan shug'ullangan bo'lsam, qanday qilib «hayotim be'mani va yovuz narsa» degandan boshqa javob olishim mumkin? U haqiqatan ham bema'ni va yovuz bo'lganda...

Dunyoning hayoti kimningdir irodasi bilan sodir bo'ladi-mana shu dunyoning hayoti va bizning hayotimiz orqali kimdir o'zining allaqanday ishini ro'yobga chiqaradi. Bu irodaning ma'nosini anglashga umidvor bo'lmoq uchun dastavval uni bajarmoq kerak, ya'ni bizdan istayotgan ishlarini qilmog'imiz kerak. Agar men mendan istayotgan ishlarini qilmasam, mendan nima istashlarini ham hech qachon bilolmayman, bizning hammamizdan va butun dunyodan nima istashlarini esa inchunun bilolmayman.

* * *

Oqilona bilimlar xatoligini anglash behuda mulohazabozlik vasvasasidan xalos bo'lishimga yordam berdi. Haqiqat haqidagi bilimni faqat hayot orqaligina topish mumkinligiga qat'iy ishonch meni o'z hayotimning to'g'riligiga shubha qilishga undadi. Biroq men o'zimning favqulodda odamligim haqidagi tasavvur changalidan qutilib qolishga ulgurdim va oddiy mehnatkash xalqning chinakam hayotini ko'rib, haqiqiy hayot faqat ana shu hayot ekaniga iymon keltirdim. Shu narsa meni qutqarib qoldi. Angladimki, agar men hayotni va uning ma'nosini anglamoqchi bo'lsam, men tekinxo'rga xos hayot kechirmog'im kerak emas, balki chinakam hayot qo'ynida yashamog'im zarur, haqiqiy insoniyat bu hayotga qanday ma'no berayotgan bo'lsa, shu ma'noni qabul qilib, shu hayotga singib ketmog'im va uni tekshirib ko'rmog'im shart.

Xuddi shu vaqtlarda men yana bir narsani kechirdim. Butun bir yil mobaynida men deyarlik har daqiqada o'z-o'zimdand «bo'ynimga sirtmoq solsammikan yo bir o'q bilan bir yoqlik qilsammikan?» deb so'rab yurgan kezlarimda men aytgan shunday o'ylar va ko'nglimdan kechgan kuzatuvlar bilan yonma-yon yuragim allanechuk bir hisdan iztirobda edi. Bu hisni men «Xudo izlash» degan iboradan boshqa biron ibora bilan atay olmayman.

Gapimga e'tibor bering: men Xudo izlashni his deyapman, mulohaza deyayotganim yo'q. Sababki, bu izlashlar mening mulohazalarim oqibatida kelib chiqqani yo'q, qolaversa, u, hatto, mulohazalarimga butkul zid edi, bu izlash to'g'ridan-to'g'ri yurakdan chiqib kelgandi. Bu tuyg'u jamiki yot, begona narsalar o'rtasida qo'rquv, yolg'izlik, kimsasizlik tuyg'usi va kimningdir yordamidan umidvorlik tuyg'usi edi.

Xudoning mavjudligini isbot qilish mumkin emasligiga to'laligicha imonim komil edi. Kant buni menga isbot qilib bergandi va men Xudoning mavjudligini isbot qilib bo'lmasligini aniq anglagan edim. Lekin shunga qaramasdan, men Xudoni izladim, uni topishga umid bog'ladim va eski odatimga ko'ra o'zim izlayotgan narsaga iltijolar qildim, lekin topolmadim. Goh men dilimda Kant bilan Shopengauerning Xudoning mavjudligini isbot qilish mumkin emasligi haqidagi dalillarini taftishdan o'tkazardim. Men o'z-o'zimga derdim: sababiyat makon va zamon kabi tafakkur kategoriyalari emas. Agar men mavjud ekanman, demak, buning sababi bor va sababining sababi bor. Ana shu hamma narsaning sababi, sabablarining sababi – Xudo deb atalmish narsadir; men shu fikr ustida to'xtab, butun vujudim bilan shu sababning mavjudligini anglashga harakat qildim.

Olamda bir kuch bor ekanini va men shu kuchning hukmida ekanimni anglay boshlashim bilanoq men shu ondayoq yashash mumkin ekanini anglay boshladim. Biroq men o'zimga-o'zim savol berdim: «Nimadir, axir, bu sabab, bu qudrat? Men uning to'g'risida qanday o'ylamog'im kerak? Xudo deb ataganimga qanday munosabatda bo'lmog'im kerak?»

Bu savollarga faqat menga tanish javoblargina ko'ndalang bo'lardi: «U – yaratuvchi, barpo etuvchi». Bu javoblar meni qanoatlantirmas edi va men ko'nglimda yashashim uchun zarur narsa g'oyib bo'layotganini his qilardim.

Men dahshatga tushib, izlaganimga sig'inib, ibodat qilib, menga yordam berishini so'rab tavallo qilardim. Ammo harchand ibodat qilganim sari u mening tavallolarimni eshitmayotgani menga ko'proq ayon bo'lar va men tavallo qilish mumkin bo'lmagan biron zot yo'qligiga amin bo'lardim. Va men yuragimda Xudo yo'qligini sezib, umidsizlikka tushsam-da, «Ey Xudo! O'zing najot ber! Ey Xudo! O'zing meni to'g'ri yo'lga sol!» deya tavallo qilishda davom etardim. Ammo hech kim rahm qo'lini uzatmas va men hayotim to'xtab qolayotganini his qilardim.

Ammo yana va yana boshqa har xil tomonlardan o'sha to'xtamga kelaverar edim – axir, men hech qanday bahonayu sababsiz, biron-bir ma'nosiz dunyoga kelgan bo'lishim mumkin emas-ku? Axir, men inidan tushib ketgan bir polapon emasman-ku! Mayli, shunaqa polapon ham bo'la qolay, mayli, baland maysalar orasida chalqancha yotganimcha chiyillab yotibman deylik. Ammo chiyillashimning boisi shuki, men bilaman – meni ochib chiqqan onam bor, - meni isitgan, boqqan, sevgan. Qani o'sha onam? Agar meni tashlab ketishgan bo'lsalar, kim tashlab ketdi? Kimdir meni yaxshi ko'rib dunyoga keltirganini men o'z-o'zimdand yashira olmayman. Xo'sh, ana shu «kimdir» kim? – Yana Xudo!

«U mening izlanishlarimni, tushkunliklarimni, kurashimni ko'rib turipti. U - bor», - deyman o'zimga-o'zim. Bir lahzaga buni e'tirof etishim bilanoq menda hayot jo'sh ura boshlaydi va men yashash imkoni borligini ko'raman, yashash quvonchini his qilaman. Ammo Xudoning mavjudligini e'tirof etgandan keyin men yana unga munosabatni izlay boshlayman va menga yana o'sha Xudo, yaratganimiz, uch qiyofadagi xaloskor O'g'lini yuborgan Xudo namoyon bo'ladi. Yana o'sha dunyodan tashqaridagi, mendan tashqaridagi Xudo ko'z o'ngimda muz parchasidek erib bitardi va undan hech narsa qolmasdi, yana hayot bulog'i qurib qolardi va men qaytadan tushkunlikka tushib, o'zimni o'ldirishdan boshqa ilojim qolmaganini his qilardim. Eng yomoni shu ediki, men buni ham qilolmasligimga ko'zim yetib turardi.

Ikki marta emas, uch marta emas, men o'nlab, yuzlab martalab, shu ahvolga tushdim – goh shodu xurram bo'lib qolar va jon kirganday bo'lardim, gohi yana yashash imkoni yo'qligini anglab, tushkunlikka berilardim.

Esimda bor – navbahor kezlari edi. Yolg'iz o'zim o'rmonda sayr qilib yurib, o'rmon tovushlarini tinglardim. O'rmon tovushlarini tinglardimu kalamda hamon o'sha - so'nggi uch yil mobaynida doimiy ravishda miyamni band qilib kelgan o'y charx urardi. Men yana Xudoni izlardim.

«Yaxshi, hech qanaqa Xudo yo'q bo'la qolsin, - derdim o'z-o'zimga. – Mening tasavvurimdan tashqaridagi Xudo yo'q deylik, ammo voqelik xuddi mening hayotim kabi. Hech narsa, hech qanaqa mo'jiza bunaqa narsani isbot qilib berolmaydi, chunki mo'jizalar mening tasavvurim doirasida, yana buning ustiga aql bovar qilmaydigan narsa bo'ladi».

«Ammo mening tasavvurim Xudo haqidami? O'sha o'zim izlayotgan Xudo haqidami? – deb so'rayman o'zimdano'zim. – Bu tasavvurning o'zi qayerdan kelib qoldi?» Bu fikr ko'nglimga kelishi bilan yana mening vujudimda hayotning xurram to'liqlari qo'zg'oldi. Tevaragimdagi hamma narsa jonlandi, hamma narsa ma'no kasb etdi. Ammo mening shodligim uncha uzoq davom etgani yo'q. Aql o'z ishini davom ettirardi. «Xudo tushunchasi Xudo emas, – derdim o'z-o'zimga. – Tushuncha mening dilimda sodir bo'ladigan narsa. Xudo haqidagi tushunchani men dilimda hosil qilishim ham mumkin, hosil qilmasligim ham mumkin. Bu men izlayotgan narsa emas. Men shunday narsani izlayapmanki, usiz hayotning bo'lishi mumkin emas». Shundan keyin tevaragimdagi va dilimdagi hamma narsa yana o'la boshladi va men yana o'z-o'zimni o'ldirgim kelib qoldi.

Biroq shu yerga kelganimda men o'zimga o'zim o'girilib qaradim, dilimda sodir bo'layotgan narsalarga nazar soldim, dilimda yuzlab marta sodir bo'lgan o'lib-tirilishlarni esladim. Men faqat Xudoga ishongan kezlarimdagina yashaganimni esladim. «Avvallari bo'lgani kabi hozir ham, – derdim o'zimga-o'zim, – Xudoni tan olishim bilan menga jon kiradi, yashay boshlayman, uni unutsam, unga ishonmay qo'ysam, darhol o'la boshlayman. Bu tirilish va o'lishlar nima bo'lsaykin? Axir, Xudoning mavjudligiga ishonchimni yo'qotgan kezlarimdagi hayotimni hayot deb bo'lmaydi, Xudoni topishimga g'ira-shira umidim bo'lmaganda edi, allaqachon o'zimni o'zim o'ldirib qo'ya qolgan bo'lardim. Men faqat uni his qilgan chog'larimda, uni izlagan chog'larimdagina chindan ham yashayman. «Xo'sh, men nimani izlayapman? – deb sado beradi dilimdagi ovoz. – Mana U. Usiz yashab bo'lmaydi. Xudoni tanimoq va yashamoq – aynan bir narsa. Xudo – hayotdir».

«Yasha, Xudoni izlab top, shunda hayoting Xudosiz bo'lmaydi». Shunda dilimdagi va atrofidagi narsalarning hammasi har qachongidan kuchliroq nurlanib ketdi va bu nur meni ortiq tark etmadi.

Shu tarzda men jonimga suiqasd qilishdan qutilib qoldim. Mendagi bu inqilob qachon va qanday sodir bo'lganini aytib berolmayman. Mendagi hayot qudrati nechog'lik asta-sekin, bilinar-bilinmas tarzda mahv qilina borgan bo'lsa va men yashashning iloji yo'qligiga, hayotimning to'xtab qolishiga, o'z-o'zimni o'ldirish ehtiyojiga kelgan bo'lsam, xuddi shu tarzda asta-sekin, bilinar bilinmas tarzda menga hayot quvvati qaytib keldi. G'alati joyi shunda ediki, menga qaytgan hayot quvvati yangi emas, juda eski hayotimning ilk pallalarida meni o'ziga jalb etgan o'sha quvvat edi. Men hamma narsada avvalgilariga, bolaligim va yoshligimdagiga qaytdim. Men meni barpo etgan va mendan nimadir istaydigan ifodaga e'tiqod qo'yishga qaytdim; men hayotimning birdan-bir maqsadi – asosiy maqsadi yaxshiroq bo'lmoqdir degan e'tiqodga, ya'ni o'sha iroda bilan rozi-rizolikda yashashga qaytdim; men ko'zimdano'zim bo'lgan olis tarixda butun insoniyat o'ziga rahnamo qilib olish uchun bu irodani ishlab chiqqan degan to'xtamga qaytdim. Boshqacha aytganda, men Xudoga e'tiqodga, ma'naviy kamolot sari intilishga va hayot ma'nosini o'zida eltuvchi rivoyatga qaytdim. Faqat farqi shunda ediki, bir zamonlar bularning hammasi ongsiz tarzda qabul qilingandi, endi esa men busiz yashay olmasligimni bilar edim.

Go'yo men boshimdan bunday voqeani kechirganday edim: esimda yo'q – qachondir meni qayiqqa o'tqazdilar, menga noma'lum bo'lgan allaqanday sohildan meni yo'lga ravona

qildilar, boshqa sohilga tomon yo‘nalishni ko‘rsatishdi, mening tajribasiz qo‘llarimga eshkakni tutqazishdi-da, meni yolg‘iz qoldirishdi. Men bilganimcha eshkak eshib, suzib ketdim. Ammo o‘rtaga yetganim sari oqim tezlasha bordi; oqim meni manzildan boshqa tomonga sudrardi. Yo‘lda esa oqim ixtiyoriga tushib menga o‘xshab sar-sari suzayotgan yo‘lovchilar borgan sari ko‘proq uchray boshladi. Eshkak eshishda davom etayotgan yolg‘iz yo‘lovchilar ham bor edi. Eshkaklari qo‘lidan tushgan yo‘lchilar ham bor edi. Odam liq to‘la katta qayiqlar, zo‘r kemalar ham bor edi – ularning ba‘zilari oqimga qarshi kurashar, ba‘zilari esa ixtiyorlarini butunlay oqimga topshirib qo‘yishgan edi. Men suzib borganim sari yo‘nalish bo‘ylab quyiga, barcha suzib borayotgan oqimga qarar ekanman, menga berilgan yo‘nalishni ko‘proq unutardim. Oqimning qoq o‘rtasida, quyi tomonga ketayotgan kemalar va qayiqlar qatorida men yo‘nalishni butunlay yo‘qotib qo‘ydim va eshkaklarni tashladim. Mening tevaragimda har tomonimdan yelkanli va eshkakli qayiqlarda yo‘lchilar shodu xurramlik bilan qiyqirishib quyi tomonga yelib borishar va meni ham, bir-birlarini ham boshqa yo‘nalishning bo‘lishi mumkin emasligiga ishontirishmoqchi bo‘lishardi. Men ularga ishondim va ular bilan suzib ketdim. Suzib ketaveribman, ketaveribman. Juda olislab ketib qolibman. Shu qadar oliski, shovvalarning ovozini eshitdim. Men bu shovvalarda toshlarga urilib nobud bo‘lishim muqarrar edi. Shovvalarda dabdalasi chiqqan qayiqlarni ko‘rdim. Birdan hushim joyiga keldi. Ancha vaqtgacha menga nima bo‘lganini, qanaqa ahvolga tushib qolganimni aniqlayolmay turdim. Men qarshimda halokatdan boshqa narsani ko‘rmas edim. Men shu halokat sari yelib-yuguribman, undan juda qo‘rqar edim va hech qayerda undan qutilish chorasini ko‘rmasdim, nima qilishimni bilmay qolgan edim. Ammo orqamga o‘girilib qarab, hormay-tolmay oqimni yorib kelayotgan son-sanoqsiz qayiqlarni ko‘rdim, sohil esimga tushdi, eshkaklarni, yo‘nalishni esladim va orqaga – oqimga qarshi sohil tomonga suza boshladim.

Sohil – Xudo edi, yo‘nalish – rivoyat edi, eshkaklar – menga berilgan erk edi. Men ularning yordamida sohilga – Xudoning jamoliga erishmoqqa suzmog‘im kerak edi. Shunday qilib, menda hayot qudrati qayta tirildi va men yana yashay boshladim.

Buyuk Adibning Iqronomasi

Bundan bir necha yil muqaddam biz bir guruh ijodkorlar Qashqadaryo viloyatidagi Muborak gazni qayta ishlash zavodiga bordik. Bizni zavod direktori Nuriddin Zayniyev kutib oldi. U xo‘jalik xodimi bo‘lsa-da, qaddi-basti, shinamgina kostyum-shimi, bo‘yinbog‘i, shlyapasiga qaraganda rostmana ziyoliga o‘xshardi. Ayniqsa, ko‘zlarida chaqnab turgan teran ma‘nodorlik, chehrasidagi nurafshonlik daf‘atan odamni o‘ziga mahliyo etardi. Uning rahnamoligida cho‘li biyobonning qoq o‘rtasida ertaklardagi pahlavonlardek qad ko‘targan ulkan inshootni aylanib chiqdik. Zayniyev zavodni ipidan-ignasigacha bilar ekan – uning tarixini, qanday ishlashini, nima mahsulot berishini, respublika iqtisodiyotida qanday o‘rin egallashini, bugun qanday muammolari borligini chuqur bir iftixor bilan gapirib berdi. Aslini olganda ham har qancha iftixor qilsa arzirdi – zavodning qurilishi ancha avval boshlangan bo‘lsa-da, O‘zbekiston mustaqillik kasb etgandan keyingina qurilish nihoyasiga yetibdi, zavod to‘la kuch bilan ishlay boshlabdi. Buni qarangki, u o‘zining ko‘lami va qudratiga ko‘ra butun dunyodagi eng yetuk o‘nta

gazni qayta ishlab chiqaruvchi zavodning biri bo'lib qolipti. Suhbatimiz kechqurun dasturxon tevaragida davom etdi. Bu guruhda men Nuriddin Zayniyevni batamom boshqa jihatdan kashf etib, lol qoldim – endi u shunchaki o'z kasbini mukammal bilgan zamonaviy injener sifatidagina emas, juda ko'p o'qigan, olamshumul falsafiy muammolar haqida o'ylaydigan mutafakkir, donishmand odam sifatida ko'rindi. U ayniqsa, ulug' adib L.N.Tolstoy haqida hayajonlanib gapirardi. Uning bir asari ichki dunyosini ag'dar-to'ntar qilib yuboribdi. Unda inson hayotining ma'nosi haqida ibratli gaplar o'rta tashlangan ekan:

— O'shandan beri o'ylayman, - dedi Nuriddin. Haqiqatan ham inson hayotining ma'nosi nima? Inson tug'iladi, ulg'ayadi, berilgan muddatni yashab bo'lib, olamdan o'tib ketadi. Xo'sh, uning vafoti bilan hayotining ma'nosi ham yo'qolib ketadimi?

— Siz Tolstoyning «Iqrornoma»sini aytyapsiz-da? – deb luqma tashladim men.

— Ha, ha, o'qigan ekansiz, - Nuriddin tilini va balki dilini tushunadigan suhbatdosh topilganidan mamnun bo'ldi. – Shu kitobni bir zamonlar o'qigan edim, shundan beri izlayman. Topib bo'larmikin-a?

Kitobni izlagancha bor edi – kitob Tolstoy hayotligida cherkovning ta'qiqiga uchragan va juda kam bosilgan edi. Sho'ro zamonida esa bu asar faqat bir marta – 1928 yilda adib tavalludining 100 yilligi bilan atigi ming nusxada chop etilgan, «Mukammal asarlar to'plami»ga kiritilgan edi. Keyin oshkoralik zamonlari kelib, 1991 yilda yana bir marta bosilgan edi. Shu kitob menda bor edi.

— Menga shundan nusxa ko'chirib jo'natsangiz juda minnatdor bo'lardim. Umuman, nega shunaqa asarlarni tarjima qilib chiqarmaysizlar?

Nuriddin Zayniyevdagi buyuk adib ijodiga qiziqish o'tkinchi va tasodifiy emasligini ko'rib, boshim osmonga yetdi. Buning boisi bor, albatta.

Insoniyat tarixida o'tgan adibu shuaroni sanab hisobiga yetib bo'lmaydi, ammo ularning kamdan-kami odamlarning ma'naviy rivojida salmoqli iz qoldirgan. Shundaylardan biri Lev Nikolayevich Tolstoydir. Uning olamdan o'tganiga salkam bir asr bo'lyapti. Shu muddat mobaynida uning olamshumul shuhrati ortsa ortdiyu, sira kamaygani yo'q. Bugun butun yer yuzida – hamma qit'alarda, hamma mamlakatlarda uning asarlari, otashin xitoblari, o'ylari yetib bormagan joy qolmadi, desak xato bo'lmaydi. Har xil irqdagi, har xil ijtimoiy tabaqaga mansub, har xil e'tiqodlarga ega odamlar o'z hayotlarining mushkul va murakkab damlarida Tolstoy asarlariga, uning boy va ko'p qirrali ijodiga murojaat qiladilar va undan ma'naviyat saboqlarini oladilar. Zamonlar aylanib hayotidagi juda ko'p narsalar eskirib ketgan bo'lsa-da, bizni qurshab olgan muhit, ashyolar dunyosi tubdan yangilangan bo'lsa-da, hatto, ko'pgina an'anaviy qadriyatlar o'rnini yangi qadriyatlar, yangi tushunchalar, yangi e'tiqodlar egallayotgan bo'lsa-da, hayotligidayoq «Insoniyatning ustoz» sifatida tanilgan Tolstoyning ma'naviy saboqlari mutloq eskirgani yo'q. O'zbeklar ham bu ulug' adibni asarlari bilan asrimiz boshidayoq tanishgan edilar. Tolstoyning bolalar uchun yaratgan masallari, ertaklari, jajji hikoyalari o'zbek tilidagi ilk darsliklarga kiritilgan. Ayrim o'zbek ziyolilari esa adib asarlarini o'qish asnosida tug'ilgan

fikr-mulohazalarini bevosita Tolstoyning o'ziga yozib yuborishgan va undan javob ham olishgan. Hozirgi kunda deyarli hamma badiiy asarlari o'zbek tiliga ag'darilgan va allaqachon o'zbek kitobxonining ko'ngil mulkiga aylanib qolgan. Lekin shunga qaramay biz bugun Tolstoy haqida, uning boy, serqirra va murakkab shaxsiyati to'g'risida tugal tasavvurga egamiz deb ayta olmaymiz. Tolstoyning ko'plab falsafiy, axloqiy, ijtimoiy, siyosiy, adabiy-tanqidiy asarlari hali-hanuz o'zbek kitobxonlarining nazaridan chetda qolib kelmoqda. Bu bilan biz o'zimizning hazrat Tolstoy shaxsiyatining yangi qirralari bilan tanishuvdan oladigan juda katta ma'naviy boylikdan mahrum qilib kelmoqdamiz. Shuning uchun bir zamonlar «dod sasi» kelgan Qarshi cho'lining qoq o'rtasida qad ko'targan tom ma'nodagi zamonaviy sanoat korxonasining yetakchisi «Iqronoma»dan bahs yuritir ekan, demak, o'zbek ziyolilarining bugungi tafakkurida muayyan siljishlar ro'y bergan ekan-da! Ular ham umumjahon tafakkurining orbitasida o'z o'rinlarini izlay boshlabdilar-da! Butun insoniyatni javob izlashga majbur qilib kelgan, o'ylashga, bahs yuritishga, izlanishga undagan «mal'un savollar» endilikda hamma o'zbek ziyolilarining bo'lmasa ham-ku, ayrimlarining oldida ko'ndalang bo'la boshlapti-da! Axir, bunga quvonmasdan bo'ladimi?

«Iqronoma» hasbi hol janrida yozilgan asar. Jahon adabiyotida bunaqa asarlar unchalik ko'p emas. Eng mashhurlari – Jan Jak Russo, Oskar Uayl'd kabi yozuvchilarniki. Ularning barida mualliflar o'z hayotlari misolida inson faoliyatining eng murakkab jihatlarini yoritadilar. Lekin ular biografik yoxud memuar asar emas. Tolstoy «Iqronoma»sining eng muhim fazilati shundaki, u asarda qaysi muammo haqida bahs yuritmasin hamisha bu muammolarini o'z hayoti misolida tahlil qilgan va biror o'rinda samimiyatdan chekinib maqtanchoqlikka, manmanlikka, o'zni pardoqlab ko'rsatishga uringan emas. Mana, quyidagi parchaga e'tibor bering: «Men urushda odam o'ldirganman, o'ldirmoq niyatida duelga chaqirganman, tasarrufimdagi mujiklarni kartaga boy berganman, ularning mehnati evaziga yashaganman, ularni qatl etganman. Yolg'onchilik, o'g'irlik, har xil rangdagi zinokorlik, ichkilikbozlik, zo'rvonlik, qotillik... Men qilmagan jinoyat qolgan emas...» Bu parchani o'qigan o'zbek kitobxoni, albatta, yoqa ushlaydi: «Yo alhazar! Shu o'zimiz bilgan, soyasiga salom berib kelgan ulug' adibmi? Rosa bo'lgan ekan-ku! Voy soqoling ko'ksingga to'kilgur – ey!» Bunday deyishimizga sabab shuki, biz («biz» deganda o'zim tengi avlodni nazarda tutayapman) yuzaki fikrlashga o'rganganmiz, biz uchun faqat oq va qora ranglargina mavjud, biz har qanday odamni baholaganda ham yo uni maqtab, farishtaga aylantirib yuboramiz, yoxud qoralab qarg'ab, qora yerga kiritib tashlaymiz. O'rtaliqni tan olmaymiz, har qanday inson ham, birinchi navbatda, banda ekanini va banda sifatida adashish huquqiga ega ekanini unutib qo'yamiz. Tolstoy ulug' edi, lekin u ayni chog'da inson ham edi va ayni shu jihati bilan u boshqa insonlarga yaqin turadi. Ko'rinadiki, «Iqronoma» yuksak samimiyati bilan, o'zi haqida o'ta shafqatsiz qalam tebratish bilanoq bizga inson to'g'risida fikr yuritganda bir tomonlamalikka yo'l qo'ymaslik zarurligini, masalaning hamma qirralariga birday e'tibor bilan qarash kerakligini o'rgatadi. «Iqronoma»ning yana bir fazilati muallif fikrlarining g'oyatda o'tkirligida. U har gal betakror bir sinchkovlik bilan masalaning mohiyatigacha yetib borishga harakat qiladi va natijada kitobxon ilgari kam e'tibor bergan jihatlarni ochib, uni yanada qiziqtirib, o'z ortidan yetaklaydi.

«Iqrornoma»ni muallif 1879 yilda, ya'ni 51 yoshida yoza boshlagan, lekin uning mazmuni haqida, asarda qo'yilgan axloqiy-ma'naviy va falsafiy masalalar to'g'risida kamida 20 yoshidan o'ylay boshlagan. Demak, asar daf'atan tug'ilgan, birdan esga tushib qolgan, fikr-mulohazalarga asoslangan emas. Ehtimol, shuning uchundirki, u bugungi kitobxon uchun ham g'oyatda ardoqli, uning ma'naviy yangilanishida g'oyatda sezilarli tirgak bo'ladigan asardir.

Ozod Sharafiddinov,

O'zbekiston qahramoni